

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

BO‘RIYEVA NARGIZA QO‘CHQAROVNA

**J.R.R. TOLKIN ASARLARIDA QADRIYATLARGA VA MODDIYLIKKA
XOS KONSEPTLAR FAOLLASHUVI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

UO‘K: 821.7+821.8
BBK 83.3(4)+83.3(7)+83.3(8)
B 94

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата доктора наук (DSc)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc)
on philological sciences**

Bo‘riyeva Nargiza Qo‘chqarovna

J.R.R. Tolkin asarlarida qadriyatlarga va moddiylikka xos konseptlar faollashuvi . 3

Буриева Наргиза Кучкаровна

Актуализация концептов ценностей и материальности в произведениях
Дж.Р.Р. Толкина 33

Burieva Nargiza Kuchkarovna

The actualization of concepts related to values and materiality in the works of
J.R.R. Tolkien 67

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 72

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

BO‘RIYEVA NARGIZA QO‘CHQAROVNA

**J.R.R. TOLKIN ASARLARIDA QADRIYATLARGA VA MODDIYLIKKA
XOS KONSEPTLAR FAOLLASHUVI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.DSc/Fil999 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdhti.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Mirsanov G'aybulla Qulmurodovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Xalimova Feruza Rustamovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Jo'rayeva Maloxat Muxammadovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yuldashev Akmal Gulamjanovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning «23» mart 2026-yil soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (62809 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "2" mart kuni tarqatildi.
(2026-yil "2" mart dagi 14 -raqamli reyestr bayonnomasi)



N.Z.Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash rasi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'.Qo'ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A.Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar rasi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida fantastik adabiyot, xususan fentezi janrini lingvistik tadqiq etishga qaratilgan izlanishlar keyingi davrda keng miqyosda faollashdi. Bugungi kunda fentezi asarlari nafaqat badiiy-estetik ifoda, balki inson tafakkurida shakllanadigan qadriyatlar tizimi, mifologik obrazlar hamda konseptual tuzilmalarni aks ettiruvchi kognitiv model sifatida qaralmoqda. Turli ilmiy markazlarda fantastik adabiyot, xususan fentezi janridagi asarlarning uslubi, mazmuni va mohiyatini ochib beradigan lisoniy tarkib, mifologik obrazlar, konseptual tuzilmalar va diskursiv xususiyatlar tadqiq qilinmoqda. Shu jarayonda qadriyatlar va moddiylikka oid konseptlar alohida ilmiy e'tibor markazida bo'lib, ular orqali asarning g'oyaviy qatlamini ochish, kognitiv asoslarini belgilash hamda lingvistik ifoda xususiyatlarini yoritish masalasi dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biriga aylanmoqda.

Dunyo tilshunosligida konsept masalasi kognitiv va semantik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralib, u inson tafakkurida shakllanadigan bilim va qadriyatlarni ifodalovchi asosiy birlik sifatida e'tirof etiladi. Konseptlarni tahlil qilish badiiy matndagi mazmun qatlamlarini ochish, muallifning g'oyaviy qarashlarini aniqlash va matnning estetik hamda aksiologik qiymatini belgilash imkonini beradi. Shu bilan birga, fentezi janridagi mifologik olam va afsonaviy obrazlarni qadriyatlar bilan bog'liq holda talqin etish, ularni shakllantiruvchi lisoniy konseptlarning lingvokognitiv xususiyatlarini izchil tahlil qilish yetarli darajada amalga oshirilmagan. Xususan, J.R.R. Tolkin asarlarida moddiylik va qadriyatlar konseptlarini aniqlash, ularni shakllantiruvchi lingvistik birliklarni belgilash va konseptual tuzilmasini yoritish bugungi tilshunoslik uchun zarurat kasb etadi.

Mamlakatimizda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida xorijiy tillarni chuqur o'rganish hamda ular orqali badiiy matnlarni lingvistik jihatdan tahlil qilishga bo'lgan ilmiy qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, qadriyatlar va umuminsoniy g'oyalarni ifodalovchi adabiy matnlarni semantik, konseptual va lingvokulturologik yondashuvlar asosida o'rganish tilshunoslikning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shuningdek, "fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy ishlarni rivojlantirish bilan birga ilmiy maktablarni saqlab qolish va yangilarini barpo etish, ularning kadrlar salohiyatini mustahkamlash, bunda iqtidorli yoshlarning ilm-fanga keng jalb etilishini rag'batlantirish"ga alohida e'tibor berilmoqda¹. Bu esa fentezi adabiyotida qadriyatlarni til orqali ifodalash, yangi metodologik yondashuvlarni shakllantirish va yosh tadqiqotchilarni innovatsion izlanishlarga yo'naltirish zaruratini yuzaga chiqarib, J.R.R. Tolkin asarlarini konseptual tuzilmasi, qadriyatlar tizimi va moddiylik ifodasini lingvistik tahlil qilishni istiqbolli yo'nalishga aylantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884> (murojaat qilingan sana: 16.04.2025).

60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 20-apreldagi PQ -128-son “Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta‘lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-son “Ta‘lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ilmiy natijalari ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiya rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi²

J.R.R. Tolkinning badiiy merosi, xususan uning fentezi janridagi asarlari dunyo adabiyotshunosligi va tilshunosligida keng ko‘lamli ilmiy izlanishlarga sabab bo‘lgan. Bugungi kunda Buyuk Britaniya (Oksford va Kembrij universitetlari)da asosan J.R.R. Tolkinning filologik ildizlari, qadimgi ingliz va skandinav adabiy manbalaridan foydalanganligi hamda O‘rta Yer mifologiyasining badiiy-estetik asoslari tahlil etilgan. AQShda (Markett universiteti) J.R.R. Tolkin qo‘lyozmalari majmuasi asosida uning ijodiy laboratoriyasi, matnlarning shakllanish bosqichlari va konseptual o‘zgarishlari tadqiq qilingan; (Kolorado, Harvard va Michigan universitetlari)da esa asosan J.R.R. Tolkin yaratgan sun‘iy tillar – Quenya, Sindarin va boshqalarning lingvistik modellash jarayoni o‘rganilgan. Kanadadagi (Toronto universiteti) tadqiqotchilari J.R.R. Tolkin asarlaridagi mifologik obrazlar va qadriyatlar tizimini tahlil qilgan. Gollandiyada (Leyden universiteti) J.R.R. Tolkin ijodida mifopoetika va mifologik arxetiplar izchil o‘rganilgan. Italiyada (La Sapienza universiteti) fentezi janrining estetik va g‘oyaviy xususiyatlari, J.R.R. Tolkin asarlaridagi mifologik kodlar tadqiq etilgan. Norvegiyada (Oslo universiteti) asosan skandinav miflari va qadimiy afsonalarning J.R.R. Tolkin ijodidagi transformatsiyasi tahlilqilingan. Shvetsiyada (Uppsala universiteti) asarlarda mifologik olam va qadriyatlarining diskursiv ifodasi, folklor bilan aloqadorlik masalalari tadqiq etilgan. Avstraliyada (Sidney universiteti) J.R.R. Tolkin asarlari

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy adabiyotlar sharhi quyidagi manbalar asosida amalga oshirildi: www.cheloveknauka.com, www.iling.iling-ran.ru, www.phraseoseminar.slovo-spb.ru, www.new-disser.ru, www.researchgate.net, www.ncsociety.org, www.inlibrary.uz, www.human.snauka.ru, www.academia.edu, www.cyberleninka.ru, www.hse.ru, www.core.ac.uk, www.uza.uz, www.webofjournals.com, <https://www.ox.ac.uk/>, <https://www.cam.ac.uk/>, <https://www.marquette.edu/>, <https://www.cu.edu/>, <https://www.harvard.edu/>, <https://umich.edu/>, <https://www.utoronto.ca/>, <https://www.universiteitleiden.nl/>, <https://www.uniroma1.it/it/>, <https://www.uio.no/>, <https://www.uu.se/>, <https://www.sydney.edu.au/>, <https://www.uni-jena.de/>, <https://www.uw.edu.pl/>, <https://www.ras.ru/>, <https://msu.ru/>, <https://spbu.ru/>, <https://umd.edu/>, <https://www.uni-jena.de/>, <https://linguanet.ru/>, <https://www.hse.ru/>, <https://uzswlu.uz/>, <https://nuu.uz/>, <https://www.samdu.uz/ru>, <https://samdchti.uz/ru>, <https://buxdu.uz/>, <https://tersu.uz/>.

narrativ hamda diskursiv talqin asosida o'rganilgan. Germaniyada (Yena universiteti) J.R.R. Tolkin matnlaridagi mifologik qatlam, qadriyatlar tizimi va diskursiv strukturalar lingvistik hamda estetik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Polshada (Varshava universiteti) fentezi janrining tarixiy-estetik asoslari bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Rossiyada (Rossiya Fanlar akademiyasi Tilshunoslik instituti, Moskva va Sankt-Peterburg davlat universitetlari) esa J.R.R. Tolkin asarlari lingvopoetika, onomastika, mifologik motivlar va qadriyatlarining leksik-semantik ifodalanishi nuqtayi nazardan keng ko'lamli tadqiqotlarga tortilgan.

Jahon tilshunosligida qadriyatlar va moddiylikka oid konseptlarni lingvistik, kognitiv va madaniy nuqtayi nazardan o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar ham yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarida faol olib borilmoqda. Jumladan, Kembrij universiteti (Buyuk Britaniya) – “Vaqt” va “Makon” konseptlarining metaforik talqinlari diskursiv-semantik tahlillar asosida tadqiq qilingan; Garvard universiteti (AQSh) – konseptual tahlil yo'nalishida “Makon”, “Vaqt” va “Hikoya” konseptlari bo'yicha kognitiv yondashuvlar qo'llanilgan; Yena universiteti (Germaniya) – lingvistik struktura, diskurs va tarixiy tahlil asosida konseptlarning kognitiv shakllanishi o'rganilgan; Leyden universiteti (Gollandiya) – psixolingvistika va neyrolingvistika yo'nalishida konseptual tuzilmalarning shakllanishi tadqiq etilgan; Oksford universiteti (Buyuk Britaniya) – J.R.R. Tolkinning “A Secret Vice” asari orqali sun'iy tillar va konseptual metaforalar nazariy asoslangan; Moskva davlat lingvistik universiteti (Rossiya) – konseptlarning lingvokognitiv va semantik tadqiqi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Oliy iqtisodiyot maktabi universiteti (Rossiya) – konseptual metafora nazariyasi bo'yicha fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan; Merilend universiteti (AQSh) – J. Lakoffning “The Contemporary Theory of Metaphor” asari orqali konseptual metafora nazariyasining asosiy talqini shakllangan; Toronto universiteti (Kanada) – badiiy matnlarda qadriyatlar va madaniy konseptlarni lingvokognitiv tahlil qilish bo'yicha izlanishlar mavjud; La Sapienza universiteti (Italiya) – mifologik obrazlar va konseptual tuzilmalar bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan; O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti – kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, konsept va qadriyatlar tahlili bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda; Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti – konseptual metafora, lingvokognitiv tahlil va diskurs tadqiqotlari mavjud; Samarqand davlat universiteti – badiiy matnda qadriyatlar konseptlari, milliy-madaniy xususiyatlar va metaforik tasvirni tahlil qilish yo'nalishida tadqiqotlar amalga oshirilgan; Samarqand davlat chet tillar institutida lingvokognitiv yondashuv asosida til va madaniyat o'zaro aloqasi, konseptual tuzilmalar tadqiqi olib borilgan; Buxoro davlat universitetida milliy qadriyatlar va badiiy konseptlarning lingvistik ifodasi bo'yicha ilmiy ishlar mavjud; Termiz davlat universitetida lingvopoetika, diskurs va konseptual metafora masalalari yuzasidan izlanishlar olib borilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida badiiy asarlarni kognitiv va aksiologik nuqtayi nazardan tahlil qilish, ularda tasvirlangan qadriyatlar va moddiylikka xos konseptlarni aniqlash, tasniflash va talqin etish ko'plab tilshunos olim va tadqiqotchilarni e'tiborini talab qilmoqda. Jumladan, Ch. Fillmorning freym semantikasi, J. Lakoff va M. Jonsonning konseptual metafora nazariyasi, K.G.

Yungning arxetiplar haqidagi psixolingvistik qarashlari matn orqali inson tafakkuridagi qadriyatlar tizimini ochib berishda muhim uslubiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi³. Ushbu yondashuvlarni rus tilshunosligida keng rivojlantirgan tadqiqotchilar qatorida E. S. Kubryakova, N. Boldirev, Z. D. Popova va I. A. Sterninlarning ishlari alohida e‘tiborga loyiq⁴. O‘zbek tilshunosligida esa bu nazariy asoslarni ilgari surgan tadqiqotchilar sirasida Sh.S. Safarov, D.U. Ashurova, M.R. Galiyeva, N.Z. Nasrullayeva, N.M. Djusupov, G. Toirova, A. Mamatov, D. Xudoyberganova, N.U. Altinboyev, N.A. Valiyeva, F.X. Muratxodjayevalarning kognitiv tilshunoslik bo‘yicha ilmiy izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi⁵.

Bevosita J.R.R. Tolkiening asarlari lingvistik tahlil obyekti sifatida xorijda chuqur o‘rganilgan. Jumladan, T. Shippi, V. Fliger, R. Noel, H. Carpenter, M.D. Drout, R. Klyuis kabi olimlar J.R.R. Tolkin asarlaridagi mifologik obrazlar, sun‘iy tillar tizimi, konseptual metaforalar, aksiologik kodlar, qahramonlar va motivlar, matn semantikasi kabi jihatlar yuzasidan fundamental tadqiqotlar olib borishgan⁶.

Shuningdek, rus tilshunosligida ham fentezi janri va J.R.R. Tolkin asarlarining lingvistik hamda g‘oyaviy tarkibi S.L. Koshelev, E.N. Kovtun, V.B. Braun, S.Lixachyova, E.S. Kirsanova, E.A. Lebedeva, J.J. Maratova, M.F. Misnik, M.E. Frolov kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Ular tomonidan J.R.R. Tolkin

³ Fillmore Ch.J. Frame semantics. *Cognitive linguistics: Basic readings*. – Berkley, University of California, 2006. – P. 373-400.; Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 256 p.; Jung C.G. *Archetypes and the Collective Unconscious*. – Princeton: Princeton University Press, 1981. – 417 p.

⁴ Кубрякова Е.С. В поисках сущности языка: Взгляды разных лет. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.; Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке. Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – М., 2004. – С. 316.; Кубрякова Е.С. В поисках сущности языка: речевое поведение, концептуализация и грамматика. – М.: Языки славянской культуры, 2006. – 288 с.; Болдырев Н.Н. Когнитивная лингвистика: курс лекций по английской филологии. Тамбов, 2002. – 235 с.; Попова З.Д., Стернин И.А. Язык и национальная картина мира. Изд-е 4-е, стер. – М. Директ-Медиа, 2015. – 151 с.; Попова, З.Д., Стернин И.А. Введение в когнитивную лингвистику. – Кемерово, 2004. – 226 с.

⁵ Сафаров Ш. С. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 б.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – 320 б.; Ashurova D.U., Galiyeva M.R. *Cognitive Linguistics (Kognitiv lingvistika)*. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2018. – 107 b.; Насруллаева Н.З. Структурирование гендерных фреймов во фразеологии английского языка // Хорижий филология. №4, – Samarqand, SamDChiti, 2016. – В. 92-95. Джусупов Н.М. Фреймовые структуры и рефрейминг в интерпретации текста. *International Scientific-Methodological Electronic Journal “Foreign Languages in Uzbekistan”*, vol. 11, No 2 (61), 2025. – P. 63-72; Тоирова Г. Прагмалингвистика. Ўқув луғат. –Тошкент: Академнашр, 2016. – 68 б.; Маматов А. Фразеологизмларнинг шаклланиш асослари. – Т.: Наврўз, 1996. – 54 б.; Маматов А. Фразеологик стилистика масалалари. – Т.: Фан ва техника, 1991. –120 б.; Худойберганова Д. Тил. Тафаккур. Маданият. Тошкент: Нодирабегим, 2020. – 120 б.; Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.; Altinboyev N.U. Turk maqollarida “oila” konseptining lingvomadaniy tadqiqi. *Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) ...diss. avtoref.* – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024. – 46 b.; Valiyeva N. A. Xitoy tilida “baxt” konseptining frazeologik birliklarda ifodalanishi. *Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) ...diss. avtoref.* – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2023. – 55 b.; Муратходжаева Ф.Х. Инглиз ва ўзбек тилларида сўз ва сўз бирикmalари маъноларининг когнитив-семантик таҳлили ва таржима муаммолари: филол.фан.б.фалс. док. (PhD) дис. автореф. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий университети, 2022. – 58 б.

⁶ Shippey T.A. *Creation from Philology in “The Lord of the Rings” // J.R.R. Tolkien. Scholar and Storyteller.* – London, 1979. – P. 286-316.; Shippey T. *J.R.R. Tolkien: Author of the Century.* New York: Houghton Mifflin, 2000. 384 p.; Shippey T. *The Road to Middle-earth: How J.R.R. Tolkien Created a New Mythology.* – London: HarperCollins, 2005. – 398 p.; Flieger V. *Splintered Light: Logos and Language in Tolkien’s World.* – Kent, OH: Kent State University Press, 2002. – 276 p.; Noel R. *The Languages of Tolkien’s Middle-earth.* – Boston: Houghton Mifflin, 2007. – 208 p.; Noel R. *The Mythology of Middle-earth.* – Boston: Houghton Mifflin, 1977. – 201 p.; Carpenter H.R. *J. Tolkien: A Biography.* – London: George Allen & Unwin, 1977. – 330 p.; Drout M.D.C., ed. *J.R.R. Tolkien Encyclopedia: Scholarship and Critical Assessment.* – New York: Routledge, 2006. – 774 p.; Clewis R.R. *Why the Sublime Is Aesthetic Awe.* *Journal of Aesthetics & Art Criticism*, 79, 2021. – P. 1-14.; Clewis R. *The Sublime and Nature’s Dual Role in Tolkien’s Work.* *Environmental Literature Review*, 8(4), 2006. – P. 303.; Clewis R. *The Sublime in Tolkien’s The Lord of the Rings.* *Tolkien Studies*, 1(1), 2004. – P. 301-314.;

ijodidagi obrazlar, mifologemalar, sun'iy tillar, arxetiplar, diskurs xususiyatlari, fentezi janrining semiotik tabiati va uslubiy xususiyatlari chuqur yoritilgan⁷.

O'zbek tilshunosligida esa fentezi janrining uslubi, stilistikasi, poetikasi B.A. Xoliqov, S.R. Abdusalimov, J.K. Muzaffarov, D. Nasriddinov, N. Saidova, Sh. Sherg'oziyev, V.I. Tashpulatova, M.I. Tursunova, I.A. Jurayeva, R. Narzikulova, D.R. Sariyeva, H. Hakimova kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan⁸.

Mazkur dissertatsiyada avvalgi ilmiy manbalardagi yondashuvlar chuqur tahlil qilinib, J.R.R. Tolkin asarlaridagi ma'naviy hamda moddiylikka oid konseptlar va ushbu konseptlarni shakllantirgan lingvistik birliklar semantik, konseptual, aksiologik, lingvokognitiv yondashuv asosida o'rganishga qaratilgan. Mazkur tadqiqot J.R.R. Tolkin asarlaridagi konseptlarni lingvistik jihatdan tahlil etishga

⁷ Кошелев С.Л. Жанровая природа «Повелителя колец» Толкина // Проблемы метода и жанра в современной литературе: Сб. науч. ст. – М., 1981. – Вып. 6.; Кошелев С.Л. К вопросу о жанровых модификациях романа в философской фантастике // Проблемы метода и жанра в зарубежной литературе. – М., 1984. – С. 134-141.; Ковтун Е.Н. Художественный вымысел в литературе XX века. 2008. – 484 с.; Ковтун Е.Н. Поэтика необычайного: художественные миры фантастики, сказки, утопии, притчи и мифа (на материале европейской литературы первой половины XX века). – М., 1999. – 308 с.; Браун В.Б. Аспекты средневековой философии в творчестве Дж. Р.Р. Толкина: проблема света // Вестник Ленинградского государственного университета им. А.С. Пушкина. 2015. Т. 1. № 2. – С. 87-96.; Лихачева С.Б. Аллитерационная поэзия в творчестве Дж.Р.Р. Толкина: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1999. – 22 с.; Лихачёва С. Миф работы Толкина. Литературное обозрение. 1993. №11-12. – С. 90-104.; Кирсанова Е.С. Ономастическая система произведений Дж.Р.Р. Толкина // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Теория языка. – 2012. – №4. – С. 68-73.; Лебедева Е.А. Особенности лексики в текстах научной фантастики. – СПб.: Изд-во СПбГУ, 2016. – 198 с.; Маратова Ж.Ж. Функции языковых средств в творчестве Дж.Р.Р. Толкина // Филологические науки: вопросы теории и практики. 2021. – Т. 14, № 2. – С. 45-54.; Мисник М.Ф. Лингвистические особенности аномального художественного мира произведений жанра фэнтези англоязычных авторов: Дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.04. – Иркутск, 2006.; Фролов М.Е. Языки Средиземья: лингвистический анализ искусственных языков Толкина // Филология и культура. – Казань: КФУ, 2018. – №2. – С. 112-117.

⁸ Kholikov V.A. The Language of Fantasy: Linguistic Features in Mythological and Fantasy Literature // Ilmiy va professional ta'lim jarayonida muloqot, fan va madaniyatlar integratsiyasi: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Samarqand: SamDCHTI, 2024. – B. 17-20.; Xoliqov B.A. Fentezi, mifologik personajlar va fantastika: umumiylik va kontrast // Xorijiy filologiya. – №4 (93). – Samarqand: SamDCHTI, 2024 – B. 5-8.; Abdusalimov S.R. Osmon va yer aseptining qiyosiy-tipologik xususiyatlari (J.R.R. Tolkinning The Silmarillion va A. Navoiyning Lison ut-Tayr asarlari asosida) // Oltin bitiglar – Golden Scripts. 2023. – T. 2, №2. – B. 55-58. – DOI: 10.5281/zenodo.15679121; Abdusalimov S.R. Fantastik asarlar ingliz adabiyotida //The Conference Hub. 2025. – С. 22-25.; Muzaffarov J.K. Artistic interpretation of mythological archetypes, symbols and epic traditions in the works of John Tolkien //Western European Journal of Linguistics and Education. 2024. – T. 2. – №. 6. – С. 272-280.; Nasriddinov D. Fantasy genre and its scientific interpretation in theoretical views // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika / Foreign Linguistics and Linguodidactics. №1(2), 2023. – B. 56-62. – DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss2-pp56-62>; Nasriddinov D. Fentezi genezisi va uning ilmiy talqini // Ilmiy axborotnoma. SamDu. № 6 (124/2). 2020 – B. 5-12.; Saidova N. “Garri Potter” – Fentezi janrining eng mashhur namunasi //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – T. 1. №. 1.– Toshkent, 2021. – B. 11-18.; Saidova N.A. “Garri Potter” asarida fantastik obrazlar tahlili //Academic research in educational sciences. – Volume 2. – №. 2. 2021. – С. 686-693.; Sherg'oziyev Sh. J.R.R. Tolkinning “Uzuklar hukmdori” asarida mifologiya va fentezi. // NamDU ilmiy axborotnomasi, 2020, №1. – B. 243-247.; Shergoziyev Sh. The mythology and fantasy in the work of J.R.R. Tolkien “The Lord of The Rings” // Scientific Bulletin of Namangan State University. – T. 2. – №. 1. 2020. – С. 243-247.; Tashpulatova V.I. Fentezi romanlarning ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimasida lingvopragmatik va lingvomadaniy aspektlar (D. Rouling romanlari misolida). Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) ...diss. avtoref. – Toshkent, 2025. – 56 b.; Tursunova M.I. Zamonaviy o'zbek va ingliz bolalar adabiyotida fantastik va realistik kategoriyalar uyg'unligi. Filol.fan.b.fals.dok. (PhD)...diss. avtoref. –Namangan: Namangan davlat chet tillar instituti, 2024. – 64 b.; Jurayeva I. Linguistic and linguocultural analysis of anthroponyms in J.K. Rowling's “Harry Potter”. NUUZ № 1. 2025. – B. 76-78.; Narzikulova R. The evolution of fantasy literature: from folklore to modern epics // Foreign Linguistics and Linguodidactics. 2025. – Special Issue 3. – P. 63-67.; Sariyeva D.R. Linguistic analysis of The Lord of the Rings as symbols of power and secrecy // Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences: International scientific-online conference. 2024. – P. 187-192. – DOI: 10.5281/zenodo.15229754.; Hakimova H. J.R.R. Tolkinning “Uzuklar hukmdori” asarida ramzlar xususiyati. Monografiya. – Riga: GlobeEdit, 2021. – 108 b.

bag‘ishlangan monografik yo‘nalishda o‘zbek tilshunosligida amalga oshirilgan dastlabki kompleks tadqiqotlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Xorijiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari” doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi J.R.R. Tolkinning asarlarida qadriyatlar va moddiylikka oid konseptlarning lingvistik tarkibi, aksiologik baholash, onomastik va mifologik obrazlar tasvirini freym, geshtalt, metaforik va statistik modellar orqali ifodalanish xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Fentezi adabiyotining nazariy maqomi, lingvistik-badiiy xususiyatlari hamda lingvistik tadqiqot obyekti sifatidagi imkoniyatlarini yoritish, J.R.R. Tolkin asarlarida badiiy olamning lisoniy manzarasi, mifologik va lingvokonseptual tarkibning o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilish;

J.R.R. Tolkin asarlarida til, mif va sun‘iy xalqlar o‘rtasidagi bog‘liqlik asosida shakllangan konseptlar tizimini, “Legendarium” doirasida til yaratish konsepsiyasi hamda moddiy va ma‘naviy kognitiv tarkibning lingvokonseptual modelini aniqlash;

J.R.R. Tolkin asarlarida “Yaxshilik” va “Yovuzlik” konseptlarining shakllanishida mifologik intertekst va onomastik birliklarning o‘rnini aniqlash hamda ularning freym va geshtalt modellar asosida lingvokonseptual ifodalanish xususiyatlarini ochib berish;

J.R.R. Tolkin asarlarida “Uzuk Hukmronligi” makrokonsepti doirasida shakllangan “Kuch”, “Tabiat”, “Sehr” hamda “Hayot / O‘lim” mikrokonseptlarining ierarxik tuzilmasini aniqlash, “Sehr” konseptining bipolyarligi va uzuk motivining diaxron resemantizatsiyasini lingvistik-semiotik jihatdan ochib berish;

J.R.R. Tolkinning “The Lord of the Rings” va “The Silmarillion” asarlarida ijobiy va salbiy obrazlar hamda “Muhabbat–Nafrat”, “Yorug‘lik–Zulmat”, “Suv” kabi ziddiyatli konseptlarning lingvistik, stilistik va aksiologik ifodalanish xususiyatlarini aniqlash, ularning badiiy matndagi semantik ahamiyati va diskursiv faolligini statistik tahlillar asosida baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida J.R.R. Tolkinning asarlari (xususan, “The Lord of the Rings”, “The Silmarillion”, “The Hobbit” “Leaf by Niggle”, “The Children of Húrin”) dagi lingvokonseptual tizim va bu tizim orqali ifodalangan qadriyatlar, mifologik elementlar, konseptual tuzilmalar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini J.R.R. Tolkin asarlarida qadriyatlar (“Yaxshilik”, “Yovuzlik”, “Muhabbat”, “Hayot”, “O‘lim”) va moddiylik (“Uzuk”, “Tabiat”, “Suv”, “Sehrli tosh”) konseptlarining lisoniy ifodasi, ularning semantik, aksiologik, metaforik, freym, geshtalt va statistik tahlil asosida namoyon bo‘lish xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda lingvistik tavsiflash, tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, nominatsion-motivatsion tahlil, strukturaviy, tipologik-tasnifiy, lingvokonseptual, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

J.R.R. Tolkin asarlari asosida fentezi janrining nazariy va lingvistik asosini tashkil qiluvchi hamda mazkur janrga xos badiiy olamning lisoniy manzarasini shakllantiruvchi mifologik motivlar, sun'iy tillar, etnoslar, aksiologik sath, konseptual oppozitsiyalar, toponimik va antroponimik birliklar hamda leksik-semantik xronotop ko'rsatkichlari tizimli ravishda aniqlangan;

J.R.R. Tolkin asarlarida til, mif va sun'iy xalq bog'liqligi Hind-Fors, Fin, Skandinav, Kelt va Anglosakson arxetiplari hamda onomastikasiga (Mithrandir, Valar, Dagor Dagorath va b.) asoslanganligi lingvokonsept tarzida modellashtirilib, arxaik mifologemalarning kosmogonik, dualistik, esxatologik derivatsiyasi va resemantizatsiyasi ochib berilgan;

J.R.R. Tolkin asarlarida "Yaxshilik" va "Yovuzlik" konseptlari freym, geshtalt, skript, stsenariy modellar asosida ularning leksik-semantik tarmoqlanishi (mehrionlik, himoya, yorug'lik, umid ↔ zulmat, qo'rquv, nazorat, halokat) va ijobiy / salbiy baholovchi poliariteti o'quvchi ongida yaxlit obrazlar hosil qilishi dalillangan;

J.R.R. Tolkin asarlarida "Kuch", "Tabiat", "Sehr" va "Hayot / O'lim" mikrokonseptlarining ierarxik tarkibi integratsiyalashtirilib, fentezi janrining semiotik xususiyatlari, "Sehr" konseptining bipolyar (ijobiy/salbiy) tabiati, uzuk motivining diaxron resemantizatsiyasi lingvistik jihatdan ochib berilgan hamda mazkur konseptlar tarkibida qo'rquv, vasvasa, fidoyilik va iroda kabi antropofenomenlarning konseptual mexanizmlari aniqlanib badiiy matnda lingvistik faollashuvi asoslangan;

J.R.R. Tolkinning "The Lord of the Rings" va "The Silmarillion" asarlarida ijobiy va salbiy obrazlar hamda "Muhabbat–Nafrat", "Yorug'lik–Zulmat", "Suv" kabi ziddiyatli konseptlar lingvokonseptual, aksiologik va metaforik mezonlar asosida badiiy matndagi semantik va diskursiv tarkibi statistik tahlil orqali aniqlangan hamda leksik birliklarning takrorlanishi, miqdoriy ustuvorligi va semantik faolligi fentezi matnining kognitiv tarkibini shakllantiruvchi asosiy diskursiv model ekanligi isbotlangan.

Dissertatsiyaning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

fentezi janrining nazariy va lingvistik asoslarini J.R.R. Tolkin asarlari misolida lingvokonseptual yondashuv asosida tadqiq etilishi adabiyotshunoslik va kognitiv tilshunoslikning kesishgan nuqtasida yangi nazariy qamrovni taqdim etadi va bu janrdagi matnlarni zamonaviy lingvistik usullar bilan tahlil qilish imkoniyatini yaratadi;

tadqiqotda aniqlangan mifologik intertekst, aksiologik oppozitsiyalar, freym va geshtalt tuzilmalar fantastik matnni tahlil qilishda lingvistik va kognitiv kategoriyalarni uyg'un tadbiq etish bo'yicha amaliy metodik baza sifatida xizmat qiladi;

tadqiqotda aniqlangan "Yaxshilik–Yovuzlik", "Qudrat–Halokat", "Yorug'lik–Zulmat" kabi asosiy konseptual oppozitsiyalarni freym va geshtalt yondashuvlar orqali tahlil qilish natijalari lingvistik-semantik tahlilni kognitiv-nazariy yondashuv bilan uyg'unlashtiradi, bu esa til va tafakkur aloqasini badiiy matnlar asosida o'rganish bo'yicha amaliy darslik, seminar mashg'ulotlari va ilmiy loyihalarda qo'llanishi mumkin bo'lgan metodik asosni yaratadi;

dissertatsiyada keltirilgan lingvokonseptual tahlillar, grafik modellar, freym

jadvallari va semantik tarmoqlanish sxemalari adabiy matnni tushunish va tahlil qilishga oid amaliy vosita sifatida Oliy ta'lim muassasalarida, xususan, "Til va adabiyot nazariyasi", "Lingvistik poetika", "Kognitiv tilshunoslik" kabi fanlarda amaliy material sifatida foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, xulosalarning lingvistik tavsiflash, tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, nominatsion-motivatsion tahlil, strukturaviy, tipologik-tasnifiy, lingvokonseptual, statistik tahlil yordamida asoslanganligi, J.R.R. Tolkin asarlaridagi qadriyatlarga va moddiylikka oid konseptlarning lingvokognitiv hamda aksiologik tahlili izchil amalga oshirilganligi, mifologik intertekst va onomastik nomlarning qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilinganligi, konseptual oppozitsiyalar ("Yaxshilik–Yovuzlik", "Yorug'lik–Zulmat", "Hayot–O'lim", "Kuch–Halokat")ning freym va geshtalt modellari ishlab chiqilib, statistik ko'rsatkichlar bilan mustahkamlanganligi, shuningdek, adibning fentezi janridagi matnlarining uslubiy va semantik qatlamlari ilmiy asosda o'rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati J.R.R. Tolkinning asarlarida qadriyatlarga va moddiylikka oid konseptlarning ("Yaxshilik–Yovuzlik", "Hayot–O'lim", "Yorug'lik–Zulmat", "Kuch", "Uzuk", "Sehr", "Tabiat" va boshqalar) lingvokonseptual, aksiologik, semantik va metaforik jihatdan tadqiq etilishi, bu orqali fentezi janridagi badiiy olamning mifologik intertekst, sun'iy til va obrazlar asosida shakllangan konseptual modelini tahlil qilish hamda ularning lingvokognitiv va diskursiv talqinini aniqlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati fentezi janriga oid matnlarni lingvokonseptual, aksiologik va statistik yondashuv asosida o'rganishga bag'ishlangan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda, "Zamonaviy adabiy jarayon", "Adabiy tanqid nazariyasi", "Lingvopoetika", "Matn tahlili", "Adabiyot va tilning integratsiyasi", "Zamonaviy lingvistik tadqiqot metodlari" kabi fanlarda ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarni boyitishda hamda lingvistik tahlil ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Ilmiy tadqiqot natijalari J.R.R. Tolkin asarlari asosida fentezi janrining nazariy va lingvistik asosini tashkil qiluvchi hamda mazkur janrga xos badiiy olamning lisoniy manzarasini shakllantiruvchi mifologik motivlar, sun'iy tillar, etnoslar, aksiologik sath, konseptual oppozitsiyalar, toponimik va antroponimik birliklar hamda leksik-semantik xronotop ko'rsatkichlari "Translation theory and practice" darsligiga integratsiya qilindi. Mazkur darslik "Ingliz tili" bakalavriat mutaxassisligi uchun mo'ljallangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-apreldagi №136-son guvohnomasi asosida ro'yxatdan o'tkazilgan (ro'yxat raqami 729922). Mazkur darslikda fantastik matnlarni tahlil qilish, lingvokulturologik qatlamni ochish, tarjimada semantik muvofiqlikni ta'minlash bo'yicha amaliy mashqlar va metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu integratsiya talabalarga badiiy olamning ko'p qirrali mazmunini anglash, tarjima jarayonida konseptual asoslarni qo'llash hamda muqobil strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

J.R.R. Tolkin asarlarida til, mif va sun'iy xalq bog'liqligi Hind-Fors, Fin, Skandinav, Kelt va Anglosakson arxetiplari hamda onomastikasiga (Mithrandir, Valar, Dagor Dagorath va b.) asoslanganligi lingvokonsept tarzida modellashtirilib, arxaik mifologemalarning kosmogonik, dualistik, esxatologik derivatsiyasi va resemantizatsiyasi borasidagi xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2021-2023-yillarda bajarilgan "Qoraqalpoq folklorida olamning etnolingvistik tasvirini monografik aspektida tahlil qilish" nomli ilmiy loyiha doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2025-yil 29-avgustdagi 522/2-son ma'lumotnomasi). Natijada, J.R.R. Tolkin mifologiyasi asosida ishlab chiqilgan lingvokonseptual model qoraqalpoq folkloridagi olam tasvirini tahlil qilishda qiyosiy-ilmiy asos bo'lib xizmat qildi va milliy mifologik birliklarning semantik tabiati chuqurroq yoritildi.

Ilmiy tadqiqot natijalari, jumladan, J.R.R. Tolkin asarlarida "Yaxshilik" va "Yovuzlik" konseptlari freym, geshtalt, skript, stsenariy modellar asosida ularning leksik-semantik tarmoqlanishi (mehrionlik, himoya, yorug'lik, umid ↔ zulmat, qo'rquv, nazorat, halokat) va ijobiy / salbiy baholovchi poliariteti o'quvchi ongida yaxlit obrazlar hosil qilishi "Crosscultural communication theory and practice" nomli darsligiga muvaffaqiyatli joriy qilindi. Ushbu darslik "Ingliz tili" bakalavriat mutaxassisligi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 21-avgustdagi № 316-son guvohnomasi asosida ro'yxatdan o'tkazilgan (ro'yxat raqami 432626). Natijada, badiiy matnni konseptual tahlil qilishning nazariy asoslarini amaliy topshiriqlar bilan uyg'unlashtirish orqali talabalar madaniyatlararo muloqot vaziyatlarida lingvistik tushunchalarni chuqur anglash va ularni samarali qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga imkon berildi.

J.R.R. Tolkin asarlarida "Kuch", "Tabiat", "Sehr" va "Hayot / O'lim" mikrokonseptlarining ierarxik tarkibi integratsiyalashtirilib, fentezi janrining semiotik xususiyatlari, "Sehr" konseptining bipolyar (ijobiy/salbiy) tabiati, "Uzuk" motivining diaxron resemantizatsiyasi lingvistik jihatdan ochib berilgani hamda mazkur konseptlar tarkibida qo'rquv, vasvasa, fidoyilik va iroda kabi antropofenomenlarning konseptual mexanizmlari aniqlanib badiiy matnda lingvistik faollashuvi "Language and literature" nomli darsligiga muvaffaqiyatli joriy qilindi. Mazkur darslik "Ingliz tili" bakalavriat mutaxassisligi uchun mo'ljallangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 21-avgustdagi № 316-son guvohnomasi asosida ro'yxatdan o'tkazilgan (ro'yxat raqami 114491). Natijada, talabalar ingliz adabiyoti tarixiy taraqqiyotini zamonaviy kognitiv va lingvokulturologik yondashuvlar asosida anglash, badiiy matnni diskursiv model sifatida talqin qilish va uni madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonida qo'llash ko'nikmalarini egallash imkoniyatiga ega bo'lishdi.

J.R.R. Tolkinning "The Lord of the Rings" va "The Silmarillion" asarlarida ijobiy va salbiy obrazlar hamda "Muhabbat-Nafarat", "Yorug'lik-Zulmat", "Suv" kabi ziddiyatli konseptlar lingvokonseptual, aksiologik va metaforik mezonlar asosida badiiy matndagi semantik va diskursiv tarkibi statistik tahlil orqali aniqlangan hamda leksik birliklarning takrorlanishi, miqdoriy ustuvorligi va semantik faolligi fentezi matnining kognitiv tarkibini shakllantiruvchi asosiy

diskursiv model ekanligi xaqidagi xulosalardan Qarshi davlat universitetida 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21GR- 3181 “Reinforcing English Language competence at Karshi State University” nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2025-yil 3-sentyabrdagi 04/4125-son ma’lumotnomasi). Natijada, J.R.R. Tolkin asarlarida kuzatilgan oppozitsion konseptlar asosida ishlab chiqilgan diskursiv model loyihada ingliz tilini o’qitish jarayonida lingvistik birliklarning semantik va aksiologik qirralarini chuqurroq anglashga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 14 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 10 ta xalqaro, 4 ta respublika konferensiyasida muhokamadan o’tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha 33 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan, 2 ta monografiya, O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 17 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika hamda 7 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan tashkil topgan bo’lib, jami 246 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga bog’liqligi ko’rsatilgan, maqsad va vazifalari berilgan, obykti va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Fentezi adabiyoti va J.R.R. Tolkin ijodining lingvokonseptual asoslari**” deb nomlangan. Bobning “**Fentezi janrining nazariy asoslari va uning lingvistik tadqiq etilish imkoniyatlari**” deb nomlangan dastlabki faslida fentezi janrining kelib chiqishi, asosiy janr belgilari hamda zamonaviy fantastik adabiyot tizimidagi o’rni yoritiladi. Qadimiy miflar, ertaklar va ritsarlik romanslariga tayangan fentezi o’zining sehr-joduga asoslangan xayoliy olami va tipik obrazlar tizimi bilan ajralib turadi hamda XX asr oxiri XXI asr boshlarida adabiyotdan tashqari kino, teatr va kompyuter o’yinlari orqali global madaniy hodisaga aylandi. Ayniqsa, J.R.R. Tolkinning “The Lord of the Rings” trilogiyasi janrning shakllanishi va ommalashuvida muhim bosqich bo’ldi.

Adabiyotshunoslikda fentezi janrini talqin qilish borasida turli qarashlar mavjud. Xususan, I.A. Osipov uni fantastik adabiyotning yo’nalishi sifatida baholagan bo’lsa⁹, M.S. Galina, E.N. Kovtun, D. Nasriddinov, M. Tursunova singari olimlar fentezini mustaqil janr sifatida ko’rsatadilar¹⁰. A. Karelin va V.L. Gopman

⁹ Осипов А.Н. Фэнтези // Он же. Фантастика от «А» до «Я»: краткий энцикл. справочник. – М., 1999. – С. 320.

¹⁰ Галина М.С. Авторская интерпретация универсального мифа (Жанр «фэнтези» и женщины писательницы) // Общественные науки и современность. № 6. 1998. – С. 161-170.; Ковтун Е.Н. Поэтика необычайного: художественные миры фантастики, сказки, утопии, притчи и мифа (на материале европейской литературы

esa uni fantastikaning kichik turi deb hisoblaydilar¹¹. Ushbu qarama-qarshi yondashuvlar janr chegaralarini belgilash murakkabligini ko'rsatadi ammo xayoliy olam qurilishi, mifologik va arxetipik obrazlar ustuvorligi, ezgulik va yovuzlik oppozitsiyasi hamda qahramonning sinov va o'sish yo'li kabi mazmuniy-tuzilmaviy belgilar fentezining mustaqil janr sifatida shakllanganini tasdiqlaydi.

Janr nazariyasida B.M. Tomashevskiy janrni kompozitsiyani belgilovchi dominantlar majmui sifatida izohlasa¹², G.N. Pospelov uni tarixan takrorlanuvchi mazmuniy belgilar asosida talqin qiladi¹³. esa janrni mazmun va ifoda vositalarining yaxlit tizimi deb baholaydi¹⁴. Ushbu yondashuvlar asosida fenteziga xos asosiy belgilar sifatida fantastik va sehrli olamga tayangan kompozitsiya, syujet dinamikasi, yaxshilik–yovuzlik oppozitsiyasi, mifologik obrazlar tizimi hamda qahramonning o'sish modeli ajratib ko'rsatiladi.

Fentezi asarlarida xayoliy olamlar janrning asosiy lisoniy-konstruktiv belgisi bo'lib, real voqelikka tayangan nominativ va konseptual vositalar orqali fantastik mazmunda modellashtiriladi. Natijada fentezi shakl va mazmun jihatidan barqaror bo'lgan mustaqil janr sifatida namoyon bo'ladi. M.M. Baxtin qayd etgan sarguzashtli syujet modeli esa mifologik va sehriga oid lisoniy birliklar bilan uyg'unlashadi¹⁵

Zamonaviy davrda fentezi nafaqat badiiy ijod, balki ilmiy-nazariy tadqiqotlarning ham muhim obyekti sifatida qaralmoqda. Mapping the Impossible, Fafnir, Clarkesworld Magazine, Uncanny Magazine¹⁶ kabi xalqaro jurnallar janrni nazariy asoslash va yangi yo'nalishlarini o'rganishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, The Lord of the Rings Online, Hogwarts Legacy¹⁷ singari kompyuter o'yinlari ham fentezi olamining zamonaviy madaniyatdagi ahamiyatini oshirmoqda.

Tadqiqotda fentezi matni lingvistik obyekti sifatida qaralib, xayoliy voqelikni

первой половины XX века). – М., 1999. – 308 с.; Nasriddinov D. Fantasy genre and its scientific interpretation in theoretical views // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika / Foreign Linguistics and Linguodidactics. 2023. – №1(2). – В. 56-62. – DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss2-pp56-62>; Tursunova M.I. Zamonaviy o'zbek va ingliz bolalar adabiyotida fantastik va realistik kategoriyalar uyg'unligi. Filol.fan.b.fals.dok. (PhD) ...diss.avto-ref. – Namangan: Namangan davlat chet tillar instituti, 2024. – В. 18.

¹¹ Карелин А. Классики. Предтечи фэнтези. URL: <http://mirf.ru/Articles/art285.htm>.; Гопман В.Л. Фэнтези // Литературная энциклопедия терминов и понятий. – М., 2001. – С. 654.

¹² Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика. – М., 2002. – 334 с.

¹³ Пospelov Г.Н. Взаимодействие литературных направлений и художественных методов // Творческие методы и литературные системы. – М., 1987. – С. 17-28.

¹⁴ Кожин В.В. Проблемы художественного стиля. – М.: Советский писатель, 1962. – С. 112.

¹⁵ Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975. – С. 235.; Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М., 1986. – 400 с.

¹⁶ Mapping the Impossible. Journal for Fantasy Research [Elektron resurs]. – Glasgow: University of Glasgow, [2021]. – Elektron jurnal. – Kirish tartibi: <https://journals.gla.ac.uk/fantasy-research/about> (murojaat qilingan sana: 04.07.2025). Fafnir – Nordic Journal of Science Fiction and Fantasy Research [Elektron resurs]. – Helsinki: Finnish Society for Science Fiction and Fantasy Research, [2014]. – Elektron jurnal. – Kirish tartibi: <https://journal.fi/fafnir/about> (murojaat qilingan sana: 04.07.2025).; Clarkesworld Magazine [Elektron resurs]. – Clarkesworld Books LLC, [2006]. – Elektron jurnal. – Kirish tartibi: <https://clarkesworldmagazine.com/> (murojaat qilingan sana: 04.07.2025).; Uncanny Magazine [Elektron resurs]. – Uncanny Magazine LLC, [2014]. – Elektron jurnal. – Kirish tartibi: <https://www.uncannymagazine.com/> (murojaat qilingan sana: 04.07.2025).

¹⁷ The Lord of the Rings Online [Elektron resurs]. – Standing Stone Games, 2007–. – Rasmiy sayt: <https://www.lotro.com/> (murojaat qilingan sana: 04.07.2025).; The Lord of the Rings: Return to Moria [Elektron resurs]. – Free Range Games, 2023. – Rasmiy sayt: <https://www.returntomoria.com/> (murojaat qilingan sana: 04.07.2025).; Hogwarts Legacy. [Elektron resurs]. – Avalanche Software, 2023. – Rasmiy sayt: <https://www.hogwartslegacy.com/> (murojaat qilingan sana: 04.07.2025).;

til orqali modellashtiruvchi badiiy matn turi sifatida talqin qilinadi. Tahlilda nominatsiya xayoliy obyektlarni matn olamida konseptual va ontologik jihatdan mavjud qiluvchi mexanizm sifatida baholanib, uning konstruktiv tabiati N.D. Arutyunova va E.S. Kubryakova qarashlari asosida izohlanadi¹⁸. Fentezi matnining konseptual arxitekturasi kognitiv tilshunoslik doirasida tahlil qilinib, markaziy konseptlarning qayta konseptualashuvi metafora va ramziylik orqali amalga oshishi G. Lakoff va M. Johnsonning konseptual metafora nazariyasiga tayangan holda ko'rsatiladi¹⁹. Fentezi diskursining xususiyatlari esa T. van Deyk va Yu.S. Stepanov²⁰ qarashlari asosida izohlanadi.

Birinchi bobning **“Fentezi janrining lingvistik va badiiy tasviri”** deb nomlangan ikkinchi faslida fentezi janri lingvistik va badiiy jihatdan xayoliy voqelikni til orqali modellashtiruvchi murakkab badiiy matn turi sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda fentezi matni lingvokonseptual tizim sifatida qaralib, unda til real voqelikni aks ettirish bilan cheklanmasdan, muqobil olamni yaratish, tartibga solish va izohlash mexanizmi vazifasini bajarishi asoslanadi. Fentezi matnining lisoniy poydevorini nominatsiya tizimi, onomastik birliklar, neologizmlar, arxaik qatlam, sun'iy tillar hamda metaforik tuzilmalar tashkil etishi ko'rsatiladi.

So'nggi yillarda fentezi janri lingvistik tadqiqotlarda alohida e'tibor markazida bo'lib, uning nazariy asoslarini xorijiy olimlardan R. Kabakov, S. Koshelev, J. Timmerman, A. Zgorzelski, shuningdek, M. Elizarova, E. Lebedeva, X. Fauskanger, J. Allan va boshqalar yoritgan²¹. O'zbek tilshunosligida esa V. Toshpulatova, M. Tursunova kabi tadqiqotchilar bu yo'nalishda qimmatli ilmiy izlanishlar olib borganlar²². Ularning izlanishlarida fentezi tilining o'ziga xos leksik, derivatsion va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi.

¹⁸ Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – 2-е изд., испр. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 911 с.; Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.

¹⁹ Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. 242 p.

²⁰ Van Dijk T.A. *Discourse and Context: A Sociocognitive Approach*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – XII, 267 p.; Степанов Ю.С. Константы: словарь русской культуры. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Академический проект, 2001. – 989 с.

²¹ Кабаков Р.И. «Повелитель Колец» Дж.Р.Р. Толкина и проблема современного литературного мифотворчества: автореф. дис. канд. филолог. наук. – Л.: ЛГПУ, 1989. – 25 с.; Кошелев С. Л. К вопросу о жанровых модификациях романа в философской фантастике // Проблемы метода и жанра в зарубежной литературе. – М., 1984. – С. 134.; Кошелев С.Л. Жанровая природа «Повелителя колец» Толкина // Проблемы метода и жанра в современной литературе: Сб. науч. ст. – М., 1981. – Вып. 6.; Кагарлицкий Ю.И. Что такое фантастика? М., 1974. – 352 с.; Timmerman J. H. *Other worlds: The fantasy genre*. – Popular Press, 1983.; Petzold D. *Fantasy fiction and related genres* // MFS Modern Fiction Studies. – 1986. – Т. 32. – №. 1. – P. 11-20.; Zgorzelski A. *Understanding fantasy*. – Varshava: Akademiya, 1972. – 215 p.; Элизарова М.Н. Лингвистика и фантастика: О языковой специфике фантастической литературы. – М.: Наука, 2014. – 215 с.; Лебедева Е.А. Особенности лексики в текстах научной фантастики. – СПб.: Изд-во СПбГУ, 2016. – 198 с.; Медведева Е.И. Словообразование в фантастических текстах. – М.: РГГУ, 2013. – 176 с.; Новикова Н.В. Функциональные особенности языка фэнтези. – Казань: Казан. ун-т, 2017. – 204 с.

Соскина С.Н. Лингвистические особенности авторских мифов в фэнтези-литературе. – Томск: ТГУ, 2015. – 192 с.; Allan J. *Language and Myth in Modern Fantasy*. – New York: Routledge, 2008. – 241 p.; Fauskanger H.K. *The Languages of Middle-earth: A Study of Tolkien's Invented Tongues*. – Bergen: Tolkien Linguistic Studies Press, 2004. – 160 p.

²² Toshpulatova V.I. *Fentezi romanlarning ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimasida lingvopragmatik va lingvomadaniy aspektlar (D. Rouling romanlari misolida)*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2021. – 176 b.; Tursunova M. I. *Zamonaviy o'zbek va ingliz bolalar adabiyotida fantastik va realistik kategoriyalar uyg'unligi*. Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) ...diss. – Namangan: Namangan davlat chet tillari instituti, 2024. – 134 b.

Fentezi matnida nominatsiya xayoliy obyektlarni ontologik va konseptual jihatdan barpo etuvchi mexanizm sifatida talqin qilinib, bu jarayon V.G. Gak, A.A. Reformatskiy va L.A. Novikov qarashlari asosida izohlanadi²³.

Shuningdek, bobda fentezi matnining konseptual modellashtirilishi kognitiv tilshunoslik doirasida tahlil qilinadi. “Ezgulik–Yovuzlik”, “Kuch”, “Taqdir”, “Qurbonlik” kabi konseptlarning xayoliy kontekstda qayta konseptualashuvi A. Vejbitskaya, R. Langacker va G. Fokonye nazariyalari asosida yoritiladi²⁴. Metafora va metonimiyaning fentezi matnidagi kognitiv va diskursiv vazifalari I.R. Galperin va A. Barcelona qarashlari bilan izohlanadi²⁵.

Fentezi diskursi muqobil voqelikni ishonarli taqdim etuvchi kommunikativ tizim sifatida talqin qilinib, unda tilning konseptual, modellashtiruvchi va me’yor belgilovchi funksiyalari aniqlanadi. Xususan, J.R.R. Tolkin ijodi misolida fentezi matnida tilning ontologik va diskursiv imkoniyatlari namoyon bo’lishi ko’rsatib beriladi. Umuman olganda, paragraf fentezi janrini mustaqil lingvistik tadqiqot obyekti sifatida o’rganish uchun nazariy-metodologik asos yaratadi.

Bobning “J.R.R. Tolkin asarlarida mifologik va lingvokonseptual tizimning xususiyatlari” deb nomlangan 3-faslida yozuvchi ijodining jahon adabiyotidagi o’rni, uning fentezi janriga qo’shgan ulkan hissasi va ilmiy adabiyotlarda “Tolkinistika” yo’nalishining shakllanishi alohida ta’kidlanadi. J.R.R. Tolkin o’z asarlarida tarixiy-madaniy qatlamlarga tayanib, qadimiy mifologiya, ritsarlik eposi va afsonalarni zamonaviy talqin asosida qayta ishlagan. Shu orqali u o’z tarixiga, geografiyasiga, tillariga ega keng va qatlamli mifologik dunyo yaratgan. Asarlarida hobbit, elf, gnom, ent, ork kabi mifologik mavjudotlar timsoli, ularning nomlanishi va tavsifida qo’llangan leksik, stilistik hamda sintaktik vositalar muallifning badiiy uslubini belgilaydi.

J.R.R. Tolkin mifologik mavjudotlar va motivlar orqali qahramonlik, ezgulik, yovuzlik, tabiat kabi asosiy konseptlarni shakllantiradi. Bu konseptlar matnda ramziy va timsolli tarmoqlar hosil qilib, asar semantikasini boyitadi. Muallif qadimiy afsonaviy birliklarni metafora, neologizm, atoqli ot va toponimlar orqali qayta ishlab, ularni lingvistik va konseptual yaxlitlikda ifodalagan. Ayniqsa, hobbit obrazlari va ularning onomastik tizimi (familiya va toponimlar) mifologik qatlamni kuchaytiradi va xalq og’zaki ijodi bilan bog’laydi.

Yozuvchi yaratgan O’rta Yer badiiy toposi real geografiyaga mos kelmasa-da, tarixiy va lingvistik asoslar bilan mustahkamlangan mifologik makon sifatida shakllangan. Yozuvchi hobbitlar tilini qadimgi anglosakson tiliga ekvivalent qilib, maxsus so’zlar va kalendar tizimini ham yaratgan. Bu jihatlar mifologik olamning lingvokonseptual xususiyatlarini ochib beradi.

²³ Гак В.Г. Языковые преобразования. – Москва: Языки русской культуры, 1998. – 432 с.; Реформатский А.А. Введение в языковедение / под ред. В. А. Виноградова. – М.: Аспект Пресс, 1996. – 536 с.; Новиков Л.А. Художественный текст и его анализ. – Москва: Наука, 1988. – 304 с.

²⁴ Wierzbicka A. Understanding cultures through their key words. – Oxford: Oxford University Press, 1997. – 328 p.; Langacker R. W. Foundations of cognitive grammar. Vol. 1: Theoretical prerequisites. – Stanford: Stanford University Press, 1987. – 516 p.; Fauconnier G. Mental spaces: aspects of meaning construction in natural language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994. – 185 p.

²⁵ Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. – Москва: Наука, 1981. – 139 с.; Barcelona A. Metonymy and metaphor at the crossroads: a cognitive perspective. – Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 2000. – 346 p.

Muallif asarlari mif va afsonaga tayanib, konseptlarni ko‘p darajali semantik qatlamlarda ifodalashi bilan ajralib turadi. Shu bois uning asarlarini lingvokonseptual yondashuv asosida tahlil qilish, badiiy mazmuni ochish va konseptlarning shakllanish mexanizmini aniqlash ilmiy zarurat kasb etadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**J.R.R. Tolkin asarlarida qadriyatlar, til va mif asosida shakllangan konseptual tuzilma**” deb sarlavhalangan. Mazkur bobning dastlabki fasli “**J.R.R. Tolkin asarlarida sun‘iy tillar va mifologik xalqlar tizimi**” deb nomlangan.

J.R.R. Tolkin o‘zining “Legendarium” tizimi orqali O‘rta Yer nomi bilan mashhur bo‘lgan keng ko‘lamli mifologik olamni yaratgan. Bu olam alohida hikoyalardan emas, balki o‘zaro bog‘langan tarixiy, mifologik va lingvistik qatlamlardan tashkil topadi. “The Silmarillion”, “The Hobbit” va “The Lord of the Rings” kabi asarlar ana shu tizimning asosiy qismlarini tashkil etadi. J.R.R. Tolkin filolog sifatidagi chuqur bilimlarini badiiy ijodga tatbiq etib, sun‘iy tillarni mif yaratishning markaziy omiliga aylantirgan. Quenya va Sindarin kabi tillar fin, lotin hamda uels tilining fonetik-estetik xususiyatlari asosida yaratilgan bo‘lib, elflarning madaniy identiteti, tarixiy xotirasi va estetik qarashlarini ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, *Khuzdul*, *Adûnaic*, *Westron*, *Rohirric*, *Entish*, *Valarin* va *Black Speech* kabi tillar ham o‘z so‘zlashuvchilari bilan bevosita bog‘langan holda tasvirlangan.

2.1-jadval.

J.R.R. Tolkin tillarining kelib chiqishi, so‘zlashuvchilari va asosiy lingvistik xususiyatlari²⁶.

Til nomi	Kelib chiqishi / ilhom manbayi	Til so‘zlashuvchi xalqlar	Asosiy lingvistik xususiyatlari	Izoh
Quenya	Fin va lotin tili unsurlari	Elflar (Noldor, Vanyar)	10 kelishik, ko‘p zamon- shakl, ochiq bo‘g‘inlar	Elflar marosim va she‘riyatda ishlatadigan “yuqori” til
Sindarin	Kelt (Uels) fonologiyasi	Elflar (Sindar, Silvan)	Yumshatish (lenition), V- S- O tartib	Elflarning kundalik muloqot tili
Khuzdul	Semit (ivrit/arab) ildiz modeli	Dvarflar (Khazâd)	Uch undoshli ildiz, qattiq undoshlar	Dvarflar sir saqlab gaplashadigan maxfiy til
Adûnaic	Semit va Hind-Yevropa aralash motivlari	Númenor odamlari (Dûnedain)	Suffiksial shaxs- zamon ko‘rsatkichlari	Númenor davrida odamlar so‘zlashgan qadimiy til; Westronga poydevor
Westron (Common Speech)	Adûnaicning soddalashgan shakli	Odamlar, Hobbitlar	Analitik gramm., ixcham fonema to‘plami	Odamlar va hobbitlarning kundalik “umumiy” tili; kitobda zamonaviy inglizcha qilib berilgan
Rohirric	Qadimgi ingliz madaniyati	Rohirrim (Eorlingas)	Old English shakl- so‘zlari	Rohan xalqi so‘zlashadigan til; matnda eski inglizcha ko‘rinishda
Entish	Onomatopeya + takrorlar	Entlar (Onodrim)	Juda uzun, agglutinatív, ko‘p takror	Entlar sekin va batafsil gapiradigan, begonalarga tushunarsiz til
Valarin	Noodatiy fonotaktika	Valar va Maiar	G‘ayrioddiy tovush klasterlari	Ilohiy mavjudotlar nutqi; oddiy jonzorlar aytishi qiyin
Black Speech	Sauron yaratgan sun‘iy til	Orklar, Mordor xizmatkorlari	Qattiq tovushlar, agglutinatív affiksalar	Sauron qudratini mustahkamlash uchun xizmat qiladigan “yovuzlik” tili

²⁶ Tolkien J.R.R. The Silmarillion. – London: HarperCollins, Illustrated Edition, 2021– 461 p.; Tolkien J.R.R. The Monsters and the Critics and Other Essays / ed. by Christopher Tolkien. – London: George Allen & Unwin, 1983. – 240 p.; Fimi D. Tolkien Race and Cultural History: From Fairies to Hobbits. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2010. – 320 p.; Noel R. The Languages of Tolkien’s Middle-earth. – Boston: Houghton Mifflin, 2007. – 208 p.

Shu tarzda til nafaqat aloqa vositasi, balki xotira, madaniyat va tarixni mujassamlashtiruvchi konseptual mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Adib yaratgan fantastik olamda xalqlar tizimi ham muhim o‘rin tutadi. Elflar o‘lmaslik, go‘zallik va donishmandlik ramzi sifatida tasvirlansa, gnomlar yerosti makonlari, mehnat, metallga ishlov berish va moddiylik konsepti bilan bog‘lanadi. Hobbitlar esa muallif tomonidan maxsus kiritilgan afsonaviy obraz bo‘lib, ular osoyishtalik, oddiylik va erkinlik qadriyatlarini ifodalaydi. Entlar tabiatning jonlantirilgan obrazi sifatida, orklar esa yovuzlikning timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir xalqning nomlari, nutqi, til tizimi va onomastik birliklari ularning konseptual vazifasini belgilaydi. Masalan, elflar bilan bog‘liq antroponimlar (*Elrond, Galadriel*), gnomlarga oid nomlar (*Durin, Thorin*) yoki hobbitlarga xos shakllar (*Baggins, Took*) lingvokulturologik asosda yaratilgan.

Yozuvchining ijodiy izlanishlari nafaqat filologik bilimlarga, balki Inkling Club doirasidagi adabiy-falsafiy muhokamalarga ham tayanadi. Ouen Barfieldning til va mif o‘rtasidagi munosabat haqidagi qarashlari²⁷, Tom Shippening tilning konseptual vazifasi haqidagi ta‘riflari J.R.R. Tolkin ijodida o‘z amaliy ifodasini topgan²⁸. Uning fantastik matnlarida til – estetik, nominativ va akkumulyativ vazifalarga ega bo‘lib, yozuvchi uchun mif yaratishning markaziy vositasiga aylangan. Shu tariqa, J.R.R. Tolkinning sun‘iy tillar tizimi va fantastik xalqlar tasviri zamonaviy fentezi janrida lingvokonseptual model yaratishning eng yorqin namunasi sifatida e‘tirof etiladi.

Mazkur bob ikkinchi faslida **“J.R.R. Tolkin asarlarida konseptual va axloqiy tizimning lisoniy asoslari”** o‘rganilgan. J.R.R. Tolkin fentezi janrining shakllanishida beqiyos rol o‘ynagan yozuvchi bo‘lib, uning “The Hobbit”, “The Lord of the Rings” va “The Silmarillion” asarlari lingvistik, mifologik va aksiologik jihatdan o‘ziga xos konseptual tizim yaratadi. J.R.R. Tolkin ijodida til markaziy konsept sifatida namoyon bo‘lib, u sun‘iy tillar, nominativ birliklar, metaforalar va semantik qatlamlar orqali badiiy olamni izchil ifodalashga xizmat qiladi. Asarlarda mif, til va konseptual tafakkur uyg‘unlashib, u orqali faqat estetik olam emas, balki qadriyatlar tizimi va axloqiy mezonlar ham shakllantiriladi.

J.R.R. Tolkin yaratgan lingvokonseptual tizimda “*Qahramonlik*”, “*Taqdir*”, “*Erkinlik*”, “*Muhabbat*”, “*Yovuzlik*”, “*Tabiat*”, “*O‘lim*” va “*Fidoiylik*” kabi konseptlar alohida semantik yadroga ega. Masalan, qahramonlik oddiy hobbitlar timsolida ifodalanib, demokratik qadriyat va zamonaviy ijtimoiy ong bilan bog‘lanadi; taqdir konsepti esa erkin iroda bilan dialektik munosabatda talqin qilinadi. Muhabbat do‘stlik, fidoyilik va insoniylikni yuksaltiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘lsa, tabiat konsepti ilohiy uyg‘unlik va ekologik axloqiylik timsoli bo‘lib xizmat qiladi. O‘lim konsepti insoniyat taqdirining ilohiy qismi sifatida, fidoyilik esa shaxsiy manfaatlardan kechish orqali umumiy ezgulik yo‘lida qurbonlik qilish timsolida ochib beriladi.

²⁷ Barfield O. Poetic diction: A study in meaning. – Middletown: Wesleyan University Press, 1973. – 230 p.; Barfield O. Saving the Appearances: A Study in Idolatry. – Middletown: Wesleyan University Press, 1988. – 191 p.

²⁸ Shippey T.A. Creation from Philology in “The Lord of the Rings” // J. R. R. Tolkien. Scholar and Storyteller. – London, 1979. – 354 p.; Shippey T.A. The Road to Middle Earth. – L.: Harper Collins Publishers, 1992. – 352 p.; Shippey T. J.R.R. Tolkien: Author of the Century. – New York: Houghton Mifflin, 2000. 384 p.; Shippey T. The Road to Middle-earth: How J.R.R. Tolkien Created a New Mythology. – London: HarperCollins, 2005. – 398 p.

Muallifning yondashuvi shundan iboratki, u lingvistik vositalarni faqat ifoda vositasi sifatida emas, balki mif yaratishning kognitiv va madaniy mexanizmi sifatida ishlatadi. Sun'iy tillar, toponimlar, arxaik birliklar, semantik antitezalar va ramziy iboralar orqali til konseptual tizimni barpo etadi. Shu tariqa J.R.R. Tolkin diskursida til badiiy olamni yaratish, qadriyatlarni semantik jihatdan kodlash va axloqiy mezonlarni shakllantirishning asosiy quroli sifatida namoyon bo'ladi.

Natijada, J.R.R. Tolkin asarlari fentezi janrini estetik hodisa sifatida cheklab qo'ymaydi, balki uni madaniy-mifologik va lingvokonseptual model darajasiga ko'taradi. Uning asarlarida badiiy obrazlar, mifologik strukturalar va lingvistik vositalar uyg'unlashib, til, mif va axloqiy qadriyatlar birligiga asoslangan konseptual tizim yaratilgan.

II bobning **“J.R.R. Tolkin asarlarida mifologik intertekst va onomastik konsepsiyalar”** deb nomlangan uchinchi faslida yozuvchi ijodidagi ikki muhim yo'nalish, onomastik tizim va mifologik intertekstlar hamda hind-fors mifologemalarining lingvokonseptual integratsiyasi tahlil qilingan.

J.R.R. Tolkin ijodida onomastik tizim va mifologik intertekstlar uning sun'iy mifologik olamining asosiy semantik qatlamini tashkil etadi. Muallif antroponimlar, toponimlar, zoonimlar, fitonimlar, gidronimlar va boshqa atoqli otlarni lingvistik-madaniy asosda modellashtirgan bo'lib, ular personajlarning xarakteri va mifopoetik vazifasini ochib beradi. Masalan, *Ent* so'zi qadimgi anglosakson tilidagi “devqomat kishi” ma'nosidan kelib chiqib, daraxt-odamlar obrazida qayta semantizatsiya qilingan; *Middle-earth* esa *Middangeard* konseptiga tayangan holda kosmologik model sifatida ishlatilgan.

Adib ismlarni faqat fonetik darajada emas, balki semantik va mifologik qatlamlarda ham qayta ishlaydi. Hobbitlar onomastikasida (*Bilbo, Baggins, Brandybuck*) yumoristik va soddalik semantikasi, orklar ismlarida (*Uglúk, Grishnákh*) dag'allik va yovuzlik fonetik-semantik asosda beriladi. Elflar nomlari (*Galadriel, Lúthien*) esa go'zallik, musiqiylik va ma'naviy yuksaklikni bildiradi. Bu usul orqali muallif nomning lingvokonseptual vazifasini maksimal darajada faollashtiradi.

J.R.R. Tolkin ko'plab onomastik birliklarni skandinav va german mifologiyasidan o'zlashtiradi (*Edda, Nibelunglar qo'shig'i, Beowulf* manbalari), biroq ularni qayta konseptual shakllantirib, O'rta Yer mifologiyasining tarkibiy qismiga aylantiradi. Masalan, gnomlar uchun tanlangan ismlar qadimgi norveg til qatlamlariga borib taqaladi, ammo ular fonetik-morfologik moslashuv orqali yangi badiiy vazifani bajaradi. Elf yozuvi esa runik tizim asosida ishlab chiqilgan bo'lib, yozuv madaniyati va mifologiyaning lingvistik sintezi sifatida namoyon bo'ladi.

Muallif “Legendarium”ida mifologik intertekst va onomastik konsepsiyalar muhim o'rin tutadi. Uning asarlarida kosmogoniya, teogoniya va esxatologiya kabi universal mifologemalar hind-fors mifologiyasi bilan qator genealogik va semantik parallelliklarda namoyon bo'ladi. Masalan, Valar obrazlari funksional jihatdan Avestodagi Amesha Spenta va Yazatalarni eslatadi; Mithrandir nomi Mitra konsepti bilan fonetik-semantik yaqinlikda talqin qilinadi; Maiar atamasi sanskrit tilidagi *māyā* konsepti bilan, Manwe esa hind an'analaridagi Manu obrazi bilan arxetipik o'xshashlik kasb etadi²⁹.

²⁹ Tolkien J.R.R. The letters of J.R.R. Tolkien. – L.: HarperCollins, 2012. – P. 345.; Boyce M. Zoroastrians: Their

J.R.R. Tolkin mifologiyasida “*ko‘prik*” modeli (Straight Road – Chin vad/Sirot ko‘prigi parallelligi), “*ajdaho bilan kurash*” (Glaurung, Smaug – Verethragna arxetipi), “*yakuniy jang*” (Dagor Dagorath – Frashokereti va Ragnarok motivlari) kabi syujet va obrazlar hind-fors hamda indoyevropa mifologiyalarining semantik qatlamlari bilan chambarchas bog‘liqdir³⁰. Ayniqsa, Gandalfning Mithrandir nomi ostidagi vositachilik, nur va olov atributlari Mitra kultining asosiy semantik xususiyatlari bilan uyg‘unlashadi³¹.

II bobning “**Fentezi diskursida “Yaxshilik – Yovuzlik” konseptlarining aksiologik va lingvistik modellashtirilishi**” deb nomlangan to‘rtinchi faslida mazkur konseptlarning lingvosemantik va aksiologik talqini qiyosiy o‘rganilgan. J.R.R. Tolkin asarlarida “Yaxshilik – Yovuzlik” oppozitsiyasi kosmogonik va mifologik asosda, leksik-semantik va onomastik birliklar orqali ifodalanadi. “*Mordor*”, “*Morgoth*”, “*Shelob*” kabi nomlar yovuzlikning timsoli bo‘lsa, “*Lothlórien*”, “*Elendil*”, “*Gandalf*” kabi nomlar yaxshilik konseptini anglatuvchi birliklardir. Antagonistik qarama-qarshilik obrazlar (*Frodo/Gollum*, *Gandalf/Saruman*), joy nomlari va metaforalar orqali yanada kuchaytiriladi. Yaxshilik g‘alabasi mutlaq emas, balki qurbonlik va ichki iztiroblar evaziga qo‘lga kiritilishi bilan tavsiflanadi.

U.K. Le Guinning “*Earthsea*” turkumida esa yaxshilik va yovuzlik konseptlari antagonistik emas, balki muvozanatni ta‘minlovchi integrativ kuchlar sifatida talqin etiladi. Asarda “*soya*”, “*nomlash*”, “*True Speech*” kabi birliklar yovuzlikning ichki-ruhiy mohiyatini, yaxshilik esa kamtarlik va uyg‘unlikni ifodalaydi. Yovuzlik insonning ichki ziddiyatidan kelib chiqadi va uni nomlash orqali boshqarish mumkinligi ko‘rsatiladi. Shu bois, U.K. Le Guin poetikasida bu konseptlar Sharq falsafasidagi In–Yang modeliga yaqin tarzda, bir-birini to‘ldiruvchi kuchlar sifatida yoritiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**J.R.R. Tolkin asarlarida qadriyatlarga va moddiylikka oid konseptlarning lingvistik ifodasi**” deb nomlangan. **Bobning “Yaxshilik” va “Yovuzlik” konseptlarining freym va geshtalt tarkibi** deb nomlangan birinchi faslida J.R.R. Tolkin poetikasida bu ikki konseptning kognitiv-semantik tuzilishi tahlil qilingan. Zamonaviy kognitiv tilshunoslikdagi konsept, freym va geshtalt nazariyalari asosida “*The Lord of the Rings*” asarida “*Yaxshilik*” va “*Yovuzlik*” ning ifodalanish mexanizmlari ochib beriladi.

Religious Beliefs and Practices. – London: Routledge, 2001. – P. 24-25.; Dhalla M.N. History of Zoroastrianism. – New York: Oxford University Press, 1938. – 164 p; Fliieger V. Splintered Light: Logos and Language in Tolkien's World. – Kent: Kent State University Press, 1983. – P. 60-63.; Boyce M. Zoroastrians: Their Religious Beliefs and Practices. – London: Routledge, 2001. – P. 45-56.; Nabarz P. (ed.) Anahita: Ancient Persian Goddess and Zoroastrian Yazata. – London: Avalonia Publishing, 2013. – 276 p.; Humbach H. The Gathas of Zarathushtra and the Other Old Avestan Texts. – Heidelberg: Winter, 1991. – 280 p.

³⁰ Beck H. German Mythology: A Concise Guide to the Gods, Heroes, Rituals, and Beliefs of Germanic Mythology. – London: Praeger, 1999. – P. 45-47.; Orchard A. Dictionary of Norse Myth and Legend. – London: Cassell, 1997. – P. 84-85.; Oxford English Dictionary. – Oxford: Oxford Univ. Press, 2007. – P. 1530-1531.; Tao N.Z. Eschatology and Fatalism in Norse Myth: The Impact of Pessimism on Nordic Culture // Open Journal of Social Sciences. – 2024. – Vol. 12, № 2. – P. 201–207.; Martin J.S. Ragnarök: An Investigation into Old Norse Concepts of the Fate of the Gods. – Assen: Van Gorcum, 1972. – 151 p.

³¹ Мифы народов мира: энциклопедия: в 2-х т. / гл. ред. С.А. Токарев. М.: БРЭ, 2003. Т. 1. А – К. 672 с.; Т. 2. К – Я. – 156-158 с.; Кюмон Ф. Мистерии Митры / пер. с англ., фр. С.О. Цветковой. СПб.: Евразия, 2000. – С. 20.;

“Yaxshilik” konsepti turli freymlar orqali faollashadi: mehribonlik (*kind voice, gentle hand*), himoya (*shelter, protection, shield*), yorug‘lik (*light, radiance, shine*), halollik va fidoyilik (*true heart, honest words*), umid (*hope*) kabi ssenariylar bir-biri bilan bog‘lanib, yaxlit geshtalt obrazini hosil qiladi.

3.1-jadval.

“Yaxshilik” konsepti asosida shakllangan freym tizimi va uning leksik ifodasi

Freymlar	Freymni shakllantiruvchi leksik birliklar	Asardan iqtibos	Lingvistik izoh	Geshtaltga bog‘liqlik
Mehribonlik	<i>kind voice, gentle hand, soft glance</i>	<i>“Galadriel smiled with a gentle light”</i>	Emotsional ohang orqali mehr va g‘amxo‘rlikni ifodalaydi	Yaxshi qahramon obrazini yaratishda asosiy komponent
Himoya	<i>shelter, protection, shield</i>	<i>“Gandalf stood as a shield before them”</i>	Himoyalovchi faol harakatni ifodalaydi	Mehribonlik bilan birgalikda yaxlit ijobiy obraz hosil qiladi
Yorug‘lik	<i>light, radiance, shine</i>	<i>“A light was about her, soft and golden”</i>	Yorug‘lik ruhiy poklik va umid ramzi	Ijobiy muhit va mehribon obrazni semantik jihatdan kuchaytiradi
Halollik	<i>true heart, honest words</i>	<i>“Sam’s heart was true and unwavering”</i>	Axloqiy rostlik va vafodorlikni bildiradi	Sodiq va ishonchli qahramonlar geshtalti

Bu freymlar Gandalf, Galadriel, Sem kabi qahramonlar hamda Rivendell, Lothlórien kabi muhitlar tasviri orqali badiiy aktual holatga keltiriladi. Shuningdek, yorug‘lik metaforasi, fidoyilik nutqlari va himoya harakatlari semantik kontrast asosida yovuzlikka qarshi qo‘yilib, ijobiy aksiologik maydonni kuchaytiradi.

3.2-jadval.

“Yovuzlik” konsepti: freym doirasidagi tahlil.

Freym nomi	Leksik birliklar	Kontekstual qo‘llanish
Qo‘rquv	<i>shadow, terror, dread, darkness, blackness</i>	Sauron va Mordorning tasviri
Zulmat	<i>gloom, blinding dark, clouded sky, black breath</i>	Nazgul, Barad-dur, Sirit Ungol sahnalari
Nazorat/Bo‘ysundirish	<i>enslave, dominate, bend to the will, no choice</i>	Uzukning ta’siri ostidagi qahramonlar
Halokat/Barbod	<i>ruin, decay, waste, destruction, burnt land</i>	Mordor, Isengardda tabiat vayronasi

“Yovuzlik” konsepti esa qoʻrquv (*shadow, terror*), zulmat (*dark, gloom*), boʻysundirish va nazorat (*enslave, dominate*), halokat (*ruin, destruction, decay*) freymlari orqali ifodalanadi.

Bu freymlar Mordor, Nazgullar, Uzuk va Saruman obrazlari atrofida shakllanib, qorongʻilik, sovuqlik, vahima va umidsizlik elementlarini birlashtirib, oʻquvchi ongida vahima va qoʻrquv geshtalt modelini hosil qiladi. Masalan, Uzuk Frodo ongini egallashi, Nazgullarning “*cold voice*” tasvirlari yoki Mordorning “*black land*” sifatida taʼriflanishi yovuzlikning lingvokonseptual integratsiyasini kuchaytiradi.

Freymlar badiiy matnda leksik birliklar orqali kontekstual ravishda faollashadigan konseptual ssenariylarni tashkil etsa, geshtaltlar ularni yaxlit, hissiy-emotsional va aksiologik mazmunga ega boʻlgan butun obrazga aylantiradi. Shunday qilib, Tolkin matnida “Yaxshilik” va “Yovuzlik” konseptlari faqat semantik birliklar darajasida emas, balki kognitiv tuzilmalarning dinamik hamkorligi asosida ifodalanadi.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli “*The Lord of the Rings*” asarida “**Kuch**”, “**Tabiat**” va “**Sehr**” konseptlarining ifodasi” deb nomlanib, unda “Uzuk hukmronligi” makrokonsepti doirasida mikrokonseptlarning aks ettirilishi, Entlar obrazi orqali “tabiat” konseptining faollashuvi hamda “*The Lord of the Rings*” asarida “Sehr” konseptining semantik qarama-qarshiliklari lingvokonseptual tahlil asosida yoritiladi.

J.R.R. Tolkinning “*The Lord of the Rings*” asarida kuch, tabiat va sehr konseptlari lingvokulturologik va mifopoetik birlik sifatida alohida semantik maydonlarni shakllantiradi. Asarning asosiy mifologik ramzi boʻlgan “*Ring of Power*” (“Uzuk Hukmronligi”) konsepti kuchning markaziy makrokonsepti sifatida yuzaga chiqadi. U hokimiyat, nazorat, boʻysundirish va halokat mazmunlarini mujassamlashtirib, elf, wizard, wraith va dwarf kabi mikrokonseptlar orqali konkretlashtiriladi. “*Elf*” konsepti uygʻunlik, goʻzallik va tinchlik qadriyatlarini, “*Wizard*” – bilim va ongning ambivalent kuchini, “*Wraith*” – qoʻrquv va yemirilish timsolini, “*Dwarf*” esa – moddiy boylik va mehnatsevarlikni ifodalaydi. Shu tariqa, “*Power*” konsepti polisemantik hamda aksiologik ambivalent birlik sifatida ochilib, asar semantik tuzilishining yadrosiga aylanadi.

Tabiat konsepti esa Entlar obrazi orqali ifodalanadi. Entlar personifikatsiya va metaforalar yordamida “*jonlantirilgan tabiat*” timsoli sifatida tasvirlanadi. Daraxtsimon tashqi koʻrinishi, sekin va chuqur fikrlash xususiyatlari ularni tabiatning qadimiy donoligi va doimiyligi bilan bogʻlaydi. *Daraxt Soqol* (*Treebeard*) obrazi oʻrmonning oʻzi bilan metonimik uygʻunlikda tasvirlanib, tabiatning mustaqil ong va xotiraga ega kuch ekanini namoyon qiladi. Entlar tilining choʻziq, sekin va murakkab tabiati esa tabiatning organik rivojlanishini lingvistik model sifatida yoritadi. Shu tariqa, “*Tabiat*” konsepti asarda nafaqat fon, balki mustaqil semantik kuch sifatida jonlanadi.

“*Sehr*” (*Magic*) konsepti esa bipolyar semantik xarakterga ega. U ijobiy jihatdan *enchantment, excellence, great* kabi birliklar orqali ezgulik, ilhom va

himoya kuchini anglatadi (masalan, Gandalf obrazi), salbiy konnotatsiyada esa *dangerous, dark, devour* kabi birliklar orqali yovuzlik, nazorat va vayronkorlikni ifodalaydi (Sauron timsolida). “Sehr” konsepti ba’zan ijod va san’at, ba’zan esa illyuziya va buzg’unchilik semantikalarini mujassamlashtirib, qarama-qarshi semantik maydonlarni birlashtiradi. Bu jihat *magic* konseptining murakkabligini va konnotativ ko‘lamini ko‘rsatadi.

“Leaf by Niggle” va “The Children of Húrin” asarlarida “Hayot” va “O‘lim” konseptlarining lingvistik talqini deb nomlangan uchinchi faslda J.R.R. Tolkin asarlarida hayot va o‘lim konseptlari tahlil qilinadi. *“Leaf by Niggle”* hikoyasida hayot daraxt metaforasi orqali talqin etilib, “Hayot” – “Daraxt” konseptual modeli nasroniylikdagi “hayot daraxti” g‘oyasi bilan bog‘lanadi. Daraxt qahramon Niggl ijodining, ruhiy kamolotining va butun insoniy mavjudlikning timsoli sifatida tasvirlanadi. Asarda o‘lim esa sayohat va tunnel obrazlari yordamida ramziy, muqarrar o‘tish sifatida ifodalanadi. *“The train ran almost at once into a dark tunnel”* kabi ifodalar “o‘lim – tunnel”, “o‘lim – yo‘l” konseptual metaforalarini shakllantiradi. Shu tariqa, hayot ijod, uyg‘onish va butunlik bilan, o‘lim esa muqarrar, kutilmagan, lekin ma’naviy o‘tish jarayoni bilan talqin qilinadi.


“The Children of Húrin” asari esa hayot va o‘lim konseptlarini epik-falsafiy qatlamda yoritadi. Asarda o‘lim konsepti markaziy semantik yadro bo‘lib, *doom, curse, darkness* kabi leksik birliklar orqali ifodalanadi.

Asarda “Hayot” konsepti esa *will, hope, honour* kabi leksik birliklar bilan bog‘lanib, iroda, kurash va mas’uliyatni ifodalaydi. *“So long as there is hope, I will fight, and live”* kabi iboralar hayotni umid va kurash bilan to‘ldiradi. Shuningdek, frazeologik birliklar (*inherit a burden, fight to live, live with honour*) hayotning axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar bilan bevosita aloqadorligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, *“Leaf by Niggle”*da hayot ijodkorlik va ruhiy uyg‘onish bilan, o‘lim esa ramziy sayohat bilan talqin qilinsa, *“The Children of Húrin”*da hayot iroda, meros va mas’uliyat bilan, o‘lim esa taqdir, la’nat va ma’naviy iztirob bilan bog‘lanadi. Metafora, antonomaziya, kontrast va evfemizm kabi vositalar orqali Tolkin hayot va o‘limni universal va individual darajadagi konseptlar sifatida falsafiy-badiiy mazmunga ega qilib tasvirlaydi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“J.R.R. Tolkin asarlarida konseptual ziddiyatlar va ularning lingvistik-statistik talqini”** deb nomlangan. Bobning birinchi faslida **“The Lord of the Rings” asarida ijobiy va salbiy obrazlarning lingvokonseptual va miqdoriy tahlili** haqida so‘z boradi.

“The Lord of the Rings” trilogiyasida bu ikki konsept murakkab semantik struktura sifatida qaralib, ular til vositalari orqali nafaqat aksiologik, balki ijtimoiy-madaniy va shaxsiy mazmunga ega bo‘lib namoyon bo‘ladi. “yorug‘lik–zulmat”, “umid–qo‘rquv”, “najot–halokat” kabi antitezalar personajlar nutqi va harakatida faol konseptual maydon yaratib, asarda doimiy dualistik kurashni shakllantiradi. Tahlilda qahramonlarning aksiologik pozitsiyasi uch guruhga ajratildi: yovuzlik timsollari (*Sauron, Gollum, Nazgull*), ambivalent qahramonlar (*Boromir, Denethor*) va ezgulikka sodiq qolgan obrazlar (*Gandalf, Aragorn, hobbit* va boshqalar).



4.1-rasm. Obrazlar bo‘yicha leksik takrorlanish statistikasi³²


Statistik tahlil asosida eng ko‘p tilga olingan obrazlar *Gandalf* (1192 marta), *hobbitlar* (958 marta) va *Aragorn* (806 marta) ekani aniqlandi; ular ezgulikning semantik markazi bo‘lib, donolik, oddiylik, sadoqat va rahbarlik kabi qadriyatlarni ifodalaydi. Yovuzlik konsepti esa asosan *Sauron* (271), *Saruman* (326) va *Gollum* (457) obrazlari orqali ifodalangan. Til birliklarining takrorlanish chastotasi obrazlarning diskursdagi nisbiy ahamiyatini ko‘rsatib, yaxshilik va yovuzlik oppozitsiyasi matnning semantik o‘qi sifatida xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tahlil shuni ko‘rsatadiki, yovuzlik konsepti ko‘pincha o‘zini-o‘zi yo‘q qiluvchi semantik komponentga ega: masalan, Frodo Uzukka qarshi kurashda yengilgan bo‘lsa-da, Gollumning harakati natijasida Uzuk halok bo‘ladi. Bu esa muallifning asosiy g‘oyasi – shaxsiy tanlov va ichki axloqiy kurashni badiiy matnning markaziy semantik g‘oyasi sifatida ilgari surishini ko‘rsatadi. “Yaxshilik” va “Yovuzlik” konseptlari lingvokonseptual va statistik tahlil vositasida trilogiyaning asosiy dualistik mazmunini ochib berdi hamda qahramonlarning nutqi va semantik roli orqali konseptual tizimning ko‘p qatlamliligini tasdiqlaydi.

To‘rtinchi bobning 2 faslida J.R.R. Tolkinning **“The Lord of the Rings” asarida “Muhabbat” va “Naftrat” konseptlarining lingvokonseptual-statistik tahlili** yoritilgan. *“Muhabbat”* (love) konsepti asarda markaziy aksiologik maydonlardan biri sifatida namoyon bo‘lib, 167 marta uchraydi va u nafaqat romantik munosabatlar, balki do‘stlik, oilaviy mehr, vatanparvarlik va diniy e‘tiqod kabi ijtimoiy-emotsional qadriyatlarni ham qamrab oladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, *“love”* leksemasining 49 foizi fe‘l shaklida (*love, loved, loving*), 20 foizi ot shaklida, qolgan qismi esa sifat, ravish va boshqa derivatsion birliklar ko‘rinishida qo‘llangan. Matnda ushbu konsept turli epitelar, metaforalar, frazeologizmlar hamda stilistik vositalar orqali ifodalanadi. Qahramonlarning sevgi va mehr-muhabbatga oid tasvirlari (*“fearless and high-hearted”, “lovely and sorrowful”, “light of stars was in her hair”* kabi) konseptning estetiko-emotsional qamrovini kengaytiradi. Muhabbat qadriyatlari romantik muhabbat (*Aragorn* va *Arven*, *Eowyn* va *Faramir*), do‘stlik va sadoqat (*Frodo* va *Sam*), oilaviy mehr (*Elrond* va *Arven*, *Eomer* va *Eowyn*) hamda Vatanga sadoqat (*hobbitlarning Shirga muhabbati*) orqali namoyon bo‘ladi. Shu bois, *“love”* konsepti Tolkin poetikasida eng oliy qadriyat sifatida talqin qilinadi.

³² Tolkien J.R.R. *The Lord of the Rings*. – London: HarperCollins eBooks, 2010. – 1210 p.

“Nafrat” (hate) konsepti esa 82 marta qo‘llangan bo‘lib, u muhabbat konseptiga qarama-qarshi semantik maydonni tashkil etadi. Uning 49 foizi fe‘l shaklida, 45 foizi esa ot shakllarida (*hate, hatred*) ishlatilgan. Bu konsept nafrat, g‘azab, hasad, xiyonat va zulmat kabi salbiy emotsiyalar bilan bog‘liq holda qo‘llanadi. Asarda “nafrat” ko‘pincha ambivalent holatda, ya‘ni muhabbat bilan qo‘shma antitezada namoyon bo‘ladi: “*He hated it and loved it, as he hated and loved himself*” kabi iqtiboslar nafrat va muhabbat o‘rtasidagi ichki ziddiyatni ko‘rsatadi.



4.4-rasm. “Muhabbat” va “Nafrat” so‘zining grammatik shakllar kesimidagi nisbiy qo‘llanilishi

“Muhabbat” va “Nafrat” konseptlari o‘zaro qarama-qarshi semantik juftlik sifatida asarning g‘oya va qadriyatlar tizimini shakllantiradi. Ushbu juftlikning lingvokonseptual va statistik tahlilining maqsadi, konseptlarni ifodalashda qo‘llangan lisoniy vositalar, ya‘ni leksik-semantik maydonlar va baholovchi leksika, antonimik oppozitsiyalar, metafora/metonimiya, epitetlar, sintaktik parallelizm, modallik, nutq aklari hamda kollokatsion birikmalarni aniqlashdir: Statistik jihatdan esa chastota, ko‘rsatkichlari orqali ushbu vositalarning taqsimoti va kontrastiv namoyon bo‘lishi xaritalanadi, natijada “Muhabbat” va “Nafrat” konseptlari uchun tipik til birliklari va ularning vazifalari ochib beriladi.


Uchinchi fasl “Suv” konseptining metaforik, aksiologik va statistik ifodasi” deb nomlangan. Unda “Suv” konsepti lingvokonseptologik jihatdan metaforik, aksiologik va statistik tahlil asosida o‘rganilgan. Suv qadimiy arxetipik birlik sifatida hayot, tozalik, onalik va qayta tug‘ilish kabi umuminsoniy tushunchalarni mujassam etadi hamda turli madaniy-tarixiy kontekstlarda chuqur semantik yuklama bilan namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda suv konseptining universal xarakteri K.G.Yung arxetiplar nazariyasi³³, shuningdek, S.A. Askoldov, Y.S. Kubryakova, Y.N. Karaulov³⁴ kabi olimlarning kognitiv yondashuvlari asosida tahlil qilingan. Ingliz tilidagi “water” konseptining mifologik, simvolik va madaniy qiymati, uning Hind-yevropa ildizlariga borib taqalishi suv qadriyatining tarixiy-madaniy qatlamlardagi uzluksizligini ko‘rsatadi.

“The Lord of the Rings” asarida “Suv” konsepti ijobiy, salbiy va neytral semantik guruhlar asosida ifodalangan: hayot va yangilanish (65%), xavf va xatar

³³ Jung C.G. Archetypes and the Collective Unconscious. – Princeton: Princeton University Press, 1981. – 417 p.

³⁴ Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Хрестоматия. – М.: Academia, 1997. – С. 267–279.; Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке. Части речи с точки зрения когнитивного анализа. – М.: Институт языкознания РАН, 2004. – 560 с.; Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – 264 с.

(20%), neytral/fon (15%). Metaforik qatlamda suv ko‘pincha ruhiy poklanish, osoyishtalik va yangilanish ramzi sifatida qo‘llanadi, ba‘zi hollarda esa (masalan, “Dead Marshes”) o‘lim va xavf timsoliga aylanadi. Neytral kontekstlarda esa suv faqat manzara tavsifini to‘ldiruvchi fon elementi sifatida ishlatiladi.



4.2-rasm. “The Lord of the Rings” asarida suvga oid leksemalar chastotasi

Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, suvga oid leksemalar (water – 468, sea – 445, river – 350, stream – 196 va b.) jami 1000 martadan ortiq qo‘llangan bo‘lib, bu konseptning yuqori intensivligini ko‘rsatadi.

Asarda suv nafaqat tabiat tasvirining elementi, balki ma’naviy poklik, ruhiy osoyishtalik, vaqtning o‘tishi, xavf va yo‘qotish kabi mavhum tushunchalarni ifodalovchi lingvokonsept sifatida faol ishlatiladi. Shu bois, “Suv” konsepti badiiy matnning semantik o‘qini tashkil etib, uning madaniy, estetik va ekzistensial qatlamlarini ochib beradi.

To‘rtinchi bobning 4-fasli “The Silmarillion” va “The Lord of the Rings”da “Yorug‘lik” va “Zulmat” konseptlarining lingvistik va statistik modellari” deb nomlangan. J.R.R. Tolkin asarlarida “Yorug‘lik–Zulmat” oppozitsiyasi nafaqat estetik, balki chuqur aksiologik va ontologik mazmun kasb etadi. “The Silmarillion”da yorug‘lik ilohiy tartib, yaratuvchanlik va kosmogonik uyg‘unlik ramzi sifatida markaziy semantik pozitsiyani egallaydi; zulmat esa mavjudlikdan chekinish, kosmik buzuqlik va yovuzlik manbai sifatida talqin qilinadi. Bunda chiroqlar, daraxtlar, yulduzlar, quyosh va oy kabi yorug‘lik manbalari semantik pog‘onalanish asosida izchil tizimni tashkil etadi. Yorug‘likning asta-sekin zaiflashuvi gradatsion semalar orqali (*“imperishable flame”, “fading light”, “lesser radiance”*) ifodalanib, metafizik markazdan periferiyaga siljish jarayonini ko‘rsatadi.


“The Lord of the Rings”da esa yorug‘lik umid, najot va qarshilik kuchining timsoliga aylanadi. Zulmat bu yerda ko‘proq ruhiy, psixologik va estetik tahdid sifatida namoyon bo‘ladi. Nazgullar va Ringwraiths obrazida qorong‘ilik semantikasi nafaqat tashqi qorong‘ilik, balki mavjudlikdan uzilish, ko‘rinmaslik va ontologik yemirilish sifatida ifodalanadi. Frodo obrazida “ko‘rinmaslik” – ruhiy yemirilish va mohiyatning susayishi ramziga aylangan.

Leksik-statistik tahlil ham bu farqlarni yaqqol ko‘rsatadi: “The Silmarillion”da yorug‘likni ifodalovchi asosiy birliklar (*“light”* – 218, *“fire”* – 118, *“white”* – 106, *“Silmaril”* – 174) kosmogonik va ilohiy yaratuvchanlikka urg‘u beradi. “The Lord

of the Rings”da esa ular sezilarli ravishda ko‘proq qo‘llanadi (“light” – 764, “fire” – 433, “white” – 545) va semantik jihatdan umid, najot va yovuzlikka qarshilik ma’nosida ishlatiladi.


“The Silmarillion”

“The Lord of the Rings”



4.6-rasm. “The Silmarillion” va “The Lord of the Rings”da “Yorug‘lik” konsepti bo‘yicha leksik birliklar taqsimoti

Diagramma har ikki asardagi “Yorug‘lik” konseptining semantik mazmunini ko‘rsatadi. Eng ko‘p ishlatilgan birlik bu “light” (*The Silmarillion*da ~47.3%, *The Lord of the Rings*da ~46.7%) konseptual markaz sifatida namoyon bo‘ladi va qolgan birliklar aynan shu asosiy birlik bilan bog‘liq holda semantik vazifa bajaradi. “Fire” (~25–26%) har ikki matnda ham faol metafora bo‘lib, *The Silmarillion*da ilohiy yaratuvchanlik, *The Lord of the Rings*da xavf va qarshilik semalarida ishlatiladi. “White” (~9.5–11.4%) esa poklik va ilohiylikni anglatuvchi sifat birligi bo‘lib, yorug‘lik qadriyati bilan bog‘liq antonim juftliklarda ham namoyon bo‘ladi. “Silmaril” (~18.9%) *Silmarillion*da kosmogonik yaratuvchanlik bilan bog‘lansa, *The Lord of the Rings*da “*Phial of Galadriel*” (~1.9%) va “*Star of Elendil*” (~1.2%) shaxsiy najot va ruhiy nur obrazlarini bildiradi. Yorug‘likni tavsiflovchi boshqa birliklar (~6–7%) – “glow”, “radiance”, “lamp”, “silver”, “gold” kabi birliklar semantik manzarani boyitib, yorug‘likning rangli, estetik, emotsional va afsonaviy qatlamlarini yaratadi.



4.7-rasm. “Zulmat” konsepti: asosiy leksik vositalarning foizlardagi taqqoslanishi

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, “Zulmat” konsepti har ikki asarda keng semantik maydonga ega. *The Silmarillion*da uning asosiy markazini “dark/darkness” (29,5%) va “Morgoth” (29,1%) tashkil etadi. *The Lord of the Rings*da esa semantik og‘irlik “dark/darkness” (32,5%), “shadow/shade” (20,5%) hamda “night” (17,2%) birliklariga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, “Black”ning ulushi *The Silmarillion*da 7,6%, *The Lord of the Rings* da esa 16,3% bo‘lib, qorong‘ilikning estetik va psixologik qatlamlarini kuchaytiradi. “Other” toifasidagi birliklar (“twilight”, “dim”, “void”, “blind” va boshqalar) esa 1–3% oralig‘ida bo‘lib, konseptga ohangdor va metafizik mazmun qo‘shadi.

Demak, Tolkin matnlarida yorug‘lik va zulmat soddalashtirilgan ikki qutbli model emas, balki dinamik, gradatsion va ko‘p qatlamli konseptual struktura sifatida ishlatilgan. “*The Silmarillion*”da ular kosmogonik va metafizik mazmunga ega bo‘lsa, “*The Lord of the Rings*”da insoniy umid, qarshilik va ruhiy sinovlarning badiiy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Tadqiqot ishi yuzasidan quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. Fentezi janri an’anaviy adabiyotshunoslik talqinlari bilan qiyosiy holda lingvistik tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqildi. Tadqiqot davomida fentezi janrining mustaqil adabiy hodisa sifatida shakllanganligi uning barqaror syujet modeli, takrorlanuvchi konseptual tuzilmalari va o‘ziga xos lisoniy mexanizmlari bilan izohlanadi. Fentezi matnida nominatsiya jarayoni xayoliy obyektlarning matndagi mavjudligini belgilovchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘lib, antroponimik, toponimik va mifonimik birliklar muqobil olamning madaniy-semantik hamda aksiologik tuzilishini shakllantirishda faol ishtirok etadi. Shuningdek, fentezi matnining konseptual arxitekturasi kognitiv yondashuv asosida tahlil qilinib, markaziy konseptlar va ularning metaforik modellashtirish mexanizmlari aniqlanadi. Diskurs tahlili natijalari fentezi matnida aksiologik kod va arxetipik ssenariylarning muqobil voqelikni ishonarli va mantiqan izchil tarzda taqdim etishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, qo‘llanilgan yondashuvlar fentezi matnini lingvistik jihatdan kompleks tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

2. Fentezi janrining lingvistik-badiiy xususiyatlari majmuaviy tipologik yondashuv asosida tahlil qilinib, unda neologizmlar, sun’iy tillar, toponimlar, antroponimlar va apellyativ birliklarning funksional-semantik roli aniqlashtirildi. Tadqiqot davomida fentezi matnida leksik va sintaktik vositalarning o‘zaro uyg‘unlashuvi muqobil olamni modellashtirishda muhim ahamiyat kasb etishi ko‘rsatildi. J.R.R. Tolkin, R.E. Govard va J.K. Rouling asarlari misolida fentezi matniga xos stilistik va lingvokonseptual xususiyatlar qiyosiy tahlil qilinib, ularning til vositalari orqali qadriyat va moddiylik bilan bog‘liq konseptlar faollashishi kuzatildi. Ushbu jihatlar fentezi matnining ilmiy fantastikadan farqlanuvchi lisoniy tabiatini yanada aniqroq yoritishga imkon berdi.

3. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, J.R.R. Tolkin asarlarida atoqli otlar, konseptlar va qadriyatlar o‘zaro bog‘liq tizim sifatida shakllanadi. Atoqli otlar fonetik obraz va

leksik motivlar orqali ma'naviy hamda moddiy konseptlarning faollashuviga xizmat qiladi, arxaik birliklar esa metafora va antonimiya asosida ikkilamchi mifologik mazmuni yuzaga keltiradi. Kartografik-onomastik tarmoq konseptlarning matn bo'ylab tarqalishini tartibga solib, syujet rivoji va o'quvchi talqinida muhim rol o'ynaydi. Tolkin asarlaridagi mifologik va lingvokonseptual tizim universal hamda individual pretsedentlarning o'zaro uyg'unligi asosida izohlanadi. Hobbit obrazi oddiylilik va jasorat qadriyatlarini mujassamlashtiruvchi semantik markaz sifatida namoyon bo'lib, O'rta Yer kartografiyasi syujet va qahramonlik arxetiplarini tashkil etuvchi tayanch tuzilma sifatida talqin qilinadi.

